

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.06.2021.Tar.55.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR
MARTALIK ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

MATYAKUBOV XAMDAM XAMIDJANOVICH

**XORAZM VOHASI URUG‘DOSHLIK TUZUMI VA QADIMGI
DAVLATCHILIK TARIXI**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Urganch – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferatining mundarijasi

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

Contents of the abstract of the doctoral (DSc) dissertation

Matyakubov Xamdam Xamidjanovich

Xorazm vohasi urug‘doshlik tuzumi va qadimgi davlatchilik

tarixi.....3

Матякубов Хамдам Хамиджанович

История родового строя и древней государственности Хорезмского

оазиса.....31

Matyakubov Khamdam Khamidjanovich

History of the clan system and the ancient statehood in Khorezm

oasis.....63

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Spisok o‘publikovannyyx rabot

List of published works.....68

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.06.2021.Tar.55.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR
MARTALIK ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

MATYAKUBOV XAMDAM XAMIDJANOVICH

**XORAZM VOHASI URUG'DOSHLIK TUZUMI VA QADIMGI
DAVLATCHILIK TARIXI**

07.00.01 – O'zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Urganch – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi Byulletenida B2024.2.DSc/Tar444 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasiga (www.urdu.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portali www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Abdullaev Utkir Ismailovich
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Koshanov Baxitbay Abdikerimovich
tarix fanlari doktori, professor

Xolmatov Normuhammad O'rozovich
tarix fanlari doktori, professor

Raimqulov Abdusabur Azzamovich
tarix fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O'zRFA Qoraqalpog'iston bo'limi
Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-
tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.06.2021.Tar.55.05 raqamli ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik Ilmiy kengashning 2025-yil "30" iyul soat 14 : 00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi 14-uy, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining Asosiy bino konferensiyalar zali. Tel.: (99862) 224-67-00; faks: (99862) 224-67-00; e-mail: info@urdu.uz (Urganch davlat universiteti).

Dissertatsiya matni bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (A-1843 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi 14-uy, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti). Tel.: (99862) 224-67-00; faks: (99862) 224-67-00. e-mail: arm@urdu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "18" iyul kuni tarqatildi.

(2025-yil "18" iyul dagi 1 raqamli reyestr bayonnomasi.)



M. K. Saribaev

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori,
dotsent

M. T. Jumaniyozova

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.n., dotsent

S. R. Davletov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, tarix fanlari doktori, professor

Kirish (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Hozirgi davr jahonda iqtisodiy, madaniy va texnologik yutuqlarga erishish bilan bir qatorda ayrim mintaqalarda siyosiy ziddiyatlarning keskinlashuvi ham namoyon bo'lmoqda. Shu sababdan turli davlatlar o'rtasida siyosiy munosabatlarni tinch yo'l bilan hal qilish va o'zaro hamkorlikni qayta tiklash dolzarb vazifani tashkil etadi. Bu borada davlatchilik, sivilizatsiyalar tarixida dunyo xalqlarning barqaror taraqqiyotini belgilab bergan madaniy muloqot, o'zaro ta'sir va bunyodkorlik an'alarini o'rganish va bilish keng miqyosda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda Markaziy Osiyoning qadimgi madaniyati va davlatchilik tarixiga oid bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu yo'nalishda urug'doshlik jamoa tuzumi umumjahon va mintaqa tarixidagi birinchi barqaror ijtimoiy-iqtisodiy birlashma sifatida holatni urug'chilik jamoalari asosida qabilalar uyushmalarining paydo bo'lishi hamda davlatchilik tizimiga o'tish va uning asosiy institutlarining rivojlanishi kabi muammolarni tahlil qilish, shuningdek, mintaqaning tarixiy-madaniy jarayonlarida Xorazm vohasining tutgan o'rnini aniqlashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Bugun Yangi O'zbekistonda ta'lim va fan sohalarida olib borilayotgan tub islohotlar natijasida, tarix fani doirasida fundamental loyihalar bo'yicha tadqiqotlarni olib borish va innovatsiya mazmuniga ega ilmiy yutuqlarni amaliyotga tatbiq etish uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Shu bois, qadimgi Xorazm vohasi tarixini yangicha qarashlar asosida ko'rib chiqish, tarixiy-madaniy jarayonlar taraqqiyotining ko'p xilligini hisobga olib, madaniy an'alar va yangiliklarning o'zaro bog'liqligi va ta'siri masalasini o'rganish, vohada davlatning kelib chiqish va rivojlanishiga sivilizatsiyaviy nuqtai nazaridan yondashilgan holda ilmiy xulosalar chiqarish, O'zbekiston va Markaziy Osiyo mintaqasi tarixiga oid nazariy va amaliy bilimlarni boyitishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-yanvardagi F-5181-son "Moddiy madaniy va arxeologiya merosi ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoyishi, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-martdagi VMQ-119-son "Moddiy madaniy meros va YUNESKOning umumjahon merosi ro'yhatiga kiritilgan xududlar muhofazasini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi¹.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони 2018 йил 16 январь Ф-5181-сонли "Моддий-маданий ва археология мероси объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланишни такомиллаштириш тўғрисида"ги Фармойиши [электрон ресурс] <https://lex.uz/docs/3506332>; 2020-йил 29-октябрдаги PF-6097-сон "Илм-фани 2030-йилгача ривожлантириш консеписиасини тасдиқлаш то'ғ'рисид"аги Фармони [электрон ресурс] <https://lex.uz/ru/docs/-5073447>; Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 3 мартдаги "Моддий маданий мерос объектлари ва ЮНЕСКОнинг умумжаҳон мероси рўйхатига киритилган худудлар муҳофазасини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги 119-сонли Қарори. [электрон ресурс] <https://lex.uz/docs/5320217>

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.

Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining 1. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, xuquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar sharhi.² Jahonda Markaziy Osiyo, shu jumladan, Xorazm vohasi urug‘doshlik tuzumi va qadimgi davlatchilik tarixiga oid tadqiqotlar dunyodagi qator ilmiy- tadqiqot markazlari va oliy o‘quv yurtlari, jumladan: Ilmiy tadqiqotlar Milliy markazi (Fransiya), Varshava universiteti (Polsha), Rossiya Federatsiyasi FA Etnologiya va antropologiya instituti hamda Arxeologiya instituti, Sharq xalqlari san’ati davlat muzeyi (Rossiya), Rossiya Federatsiyasi FA Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo‘limi va Sidney universiteti (Avstraliya) tomonidan amalga oshirilmoqda.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida Xorazm vohasidagi neolit davri urug‘doshlik tuzumiga oid Jonbos 4,5, Ko‘kcha kabi makonlar tekshirilib, tosh qurollarning yangi turlari topildi, shuningdek, Sulton Uvays tog‘i yonbag‘irlarida so‘nggi paleolit davriga oid makon kashf etildi (Fransiya ilmiy tadqiqotlar Milliy markazi, Varshava universiteti (Polsha); Kaltaminor madaniyati manzilgohlarini o‘rganilishi jarayonida yovvoyi hayvonlarni xonakilashtirilishi masalasiga oid yangi ma’lumotlar qo‘lga kiritildi, dashtlarda yashagan neolit davri jamoalari turmushida sopol idishlarning paydo bo‘lishi mil.avv.VII ming yillik oxiri – VI ming yillik bilan belgilandi (Fransiya ilmiy tadqiqotlar Milliy markazi); Sariqamishbo‘yi Sakarchaga qirlarida joylashgan ilk saklar mozor qo‘rg‘onlarning o‘rganish asosida Janubiy Orolbo‘yi saklarning moddiy madaniyati va dafn marosimlari haqida ma’lumotlar umumlashtirib dastlab fanga kiritilgan (Rossiya FA Arxeologiya instituti); Qal’aliqir 2 va Govur 3 ibodatxonalarida antik davri me’morchiligi hamda moddiy madaniyat va tasviriy san’at namunalari o‘rganilgan (Rossiya FA Etnologiya va antropologiya instituti), ibodatxonalardan topilgan Xorazm yozuvi yodgorliklari ilmiy muomalaga kiritilgan (Rossiya FA Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo‘limi); arxeologik materiallari asosida qadimgi Xorazm madaniyatini davrlashtirish va Orolbo‘yida dehqonchilikning shakllanishi masalasi ko‘rib chiqilgan (Sharq xalqlari san’ati davlat muzeyi, Rossiya); Oqchaxonqal’a ibodatxonasida devoriy rang tasvirlarning kashf etilishi va ularning o‘rganilishi Xorazm san’ati tarixini yangi ma’lumotlari bilan boyitishga asos bo‘lgan (Sidney universiteti, Avstraliya).

Xorazm vohasida urug‘chilik tuzumi va qadimgi davlatchilik tarixi masalalarini o‘rganish quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda olib borilmoqda: Quyi Amudaryo havzasi xududlarini tosh davri urug‘doshlik jamoalari tomonidan o‘zlashtirish jarayonlari va atrof-muhitga antropogen ta’sirning jihatlarini tahlili; qadimgi davr savdo yo‘llarning rivojlanib borishi va madaniy aloqalarning tahlili; Xorazm sivilizatsiyasi, shaharlar, arxitektura va san’atning o‘ziga xosligini aniqlash.

² Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi: <https://archaeology.nsc.ru>, <https://www.hsu.ru>; <https://www.academia.edu>; <http://archelogy.uz/ru>; <https://www.chess.fr>; <https://www.sydney.edu>; <https://www.cnrs.fr/index.php>. va boshqa manbalar asosida tayyorlandi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xorazm vohasida urug‘doshlik tuzumi tarixini o‘rganish natijalari, vohada davlatchilik shakllanishi va rivojlanishiga oid ilmiy qarashlar va yondashuvlar, tarixshunoslik masalalari hamda ilmiy adabiyotlar tahlili alohida davrlarga ajratilib ochib berilgan³.

Qadimgi Xorazm tarixini ilmiy jihatdan yoritilishining birinchi davri XIX asrning 70 – yillari XX asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Bu davr tadqiqotlari yozma manbalar tahliliga asoslangan.

XX asr 30-80-yillarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar tufayli, turli tarixiy davrlarga mansub yangi materiallar aniqlanib, madaniyat bilan bir qatorda ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarni qayta tiklash dolzarb vazifaga aylangan.

XX asrning 90-yillari – XXI asr birinchi choragida amalga oshirilgan tadqiqotlar va chop etilgan adabiyotlar mazmuni nuqtai nazaridan, Xorazm vohasining qadimgi tarixini o‘rganishda uchinchi davr hisoblanadi. Mazkur davrda voha tarixiga mansub bilimlarning keng rivojlanishi va ilmiy qarashlarning o‘zgarib borishi tufayli, qadimgi davlatchilik muammolarini qayta ko‘rib chiqish zarurati yuzaga keldi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan Oliy ta’lim muassasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Urganch davlat universiteti, O‘zbekiston Milliy universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq OT-F1-91 “Markaziy Osiyoda tarixiy-madaniy viloyatlarning shakllanishi va etnik geografiyasi muammolari” (2017-2020-yy) mavzusidagi fundamental ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Xorazm vohasi urug‘doshlik tuzumi va qadimgi davlatchilik tarixini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

qadimgi urug‘doshlik tuzumini o‘rganishning ba’zi nazariy jihatlarini ochib berish;

Xorazm vohasi urug‘chilik tuzumining o‘rganish natijalari va tarixshunoslik masalalarini yoritish;

qadimgi Xorazm davlatchiligi tarixiga oid ilmiy qarashlar va yondashuvlarni tahlil qilish;

tosh va bronza davrida Orolbo‘yi hududlarini o‘zlashtirish jarayonlari, tosh davri xo‘jaligi, madaniyati va ijtimoiy aloqalarning tarixini yoritish;

ilk migratsiyalar, bronza davri urug‘doshlik tuzumi tarixini tavsiflab berish;

Orolbo‘yida sak qabilalarning paydo bo‘lishi muammosini ochib berish;

dasht qabilalari, Xorazm madaniyatlari va Markaziy Osiyo sivilizatsiyalarining o‘zaro aloqalarini tahlil qilish;

Xorazm vohasida ijtimoiy tuzum, qabilalar uyushmasi, ilk davlatchilik va boshqaruv tizimi masalalarini ochib berish va umumlashtirish;

antik davri Xorazmda markazlashgan davlatning vujudga kelishi va uning hududiy chegaralari muammolarini ta’riflab berish;

Xorazm davlatining hududiy-ma’muriy tizimi, shaharlar va ijtimoiy-iqtisodiy tarixini yoritish;

³ Muammoning o‘rganilganlik darajasi va tarixshunosligi masalalari dissertatsiyaning I bobida batafsil yoritilgan.

qadimgi Xorazm davlatchiligi taraqqiyotida din, san'at va yozuvning ahamiyatini baholashdan iborat.

Tadqiqot ob'ekti sifatida Xorazm vohasi urug'doshlik tuzumi va qadimgi davlatchiligi tarixi belgilangan.

Tadqiqot predmetini Xorazmda urug'chilik tuzumi davrida ijtimoiy-iqtisodiy tizimi va madaniyat, qabilalarning harbiy-siyosiy uyushmalari va qadimiy davlatchilik rivojlanish jarayonlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada turlicha tarixiy va arxeologik ma'lumotlarni izchil o'rganish va talqin qilish, qiyoslash, tahlil va tizimli yondashuv hamda xolislik tamoyili kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Xorazm vohasi urug'doshlik tuzumining Markaziy Osiyo dashtlari tabiiy-geografik sharoitida, o'xshash turmush tarzi va bir xil ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi urug'chilik jamoalaridan iborat etnik hududlarining shakllana boshlanishi jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy uyushma tizimi, ichki va tashqi aloqalar hamda o'zaro madaniy iqtisodiy ta'sir jihatlari ochib berilgan;

Quyi Amudaryo havzasida tosh davrining so'nggi bosqichlarida ovchilar va baliqchilar xo'jalik-madaniy tipiga asoslangan urug'chilik jamoalari orasida aholi sonining ortib borishi va foydali resurslarning cheklanishi sababli, oziq-ovqat mahsulotlarni qo'lga kiritishdagi jamoatchilik tamoyili moddiy ishlab chiqarishning o'sishiga to'siq bo'lib, o'z ahamiyatini yo'qotishi va bronza davrida tashqi migratsiyalar hamda etnomadaniy va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar yuzaga kelishi natijasida ishlab chiqarish xo'jalikning paydo bo'lishi asoslangan;

Orolbo'yi hududlarini inson tomonidan o'zlashtirishning tarixiy bosqichlari, qadimiy jamoalar hududiy joylashish xususiyatlari va chegaralarining o'zgarib borish omillari, o'troq, yarim o'troq va ko'chmanchi joylashish shakllarining hududiy ajralib chiqishi arxeologik ma'lumotlar va yangi tuzilgan xaritalar asosida ochib berilgan;

Xorazm vohasi va Sharqiy Orolbo'yida aniqlangan arxeologik ma'lumotlarning tahlili asosida Orolbo'yi ilk davlatchilik tarixini yangicha davrlashtirish va uning rivojlanishini mil.avv. IX-VIII asrlar – harbiy-siyosiy uyushmalar tashkil topishi davrga va mil.avv. VII oxiri – VI asr o'rtalarida Xorazmning janubi-g'arbida markazi Ko'zaliqir qal'asida joylashgan davlatchilik davriga ajratish zaruriyati isbotlangan;

Antik davrda (mil.avv. IV – milodiy III asrlar) Xorazm davlati tarixida jamiyatning tuzilishi, hududiy-ma'muriy bo'linishi va boshqaruvi, xususiy mulk va soliq tizimi, din va davlatchilik kabi masalalari hamda Xorazm sivilizatsiyasi yutuqlarini belgilab beruvchi mahalliy yozuvi va davlatchilik taraqqiyoti darajasini o'zida aks ettiruvchi san'atning o'rni va ahamiyati, Markaziy Osiyodagi Yunon-Baqtriya, Parfiya va Kushon podshohliklarida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va madaniyati bilan qiyoslangan holda ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Xorazm vohasi urug'doshlik tuzumi tarixshunoslik, masalalari Qadimgi Xorazm davlatchiligi tarixiga oid ilmiy qarashlar va yondashuvlar ilk bor umumlashtirilgan:

Bugungi kunga qadar to'plangan tarixiy va arxeologik ma'lumotlarni tizimlashtirilgan holda, tadqiqotda yangi uslubiy va nazariy yondashuvlar asosida

Xorazmning tosh va bronza davri, ilk temir asri va antik davri ijtimoiy-iqtisodiy tizimi, etnomadaniy va siyosiy jarayonlari tahlil qilingan;

Tadqiqotning ilmiy natijalari asosida monografiya va maqolalar chop etilgan, qadimgi Xorazm tarixiga oid yangicha ilmiy qarashlar fanga tatbiq etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi mavzuni o'rganishda asosiy tarixiy manbalar, ilmiy adabiyotlar ma'lumotlari va xolis yondashuvdan foydalanganligi hamda tizimlashtirilgan ilmiy materiallarni umumlashtirish va qiyosiy tahlilning qo'llanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tarixiy tadqiqotlar usullarini takomillashtirish, Markaziy Osiyo urug'doshlik tuzum, qadimgi davlatchilik va shaharsozlik madaniyati tarixining dolzarb ilmiy mavzulari yo'nalishlarini ishlab chiqish va ularga mansub yangicha yondashuvlar va qarashlarni yaratish hamda tarix fani sohasini yangi asoslarda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, dissertatsiya ma'lumotlari tarix, manbashunoslik, tarixiy geografiya, arxitektura va san'at tarixi kabi fanlararo yo'nalishlari uchun amaliy tajriba vazifasini o'taydi. Ulardan oliy ta'lim tizimida, tarix fani mutaxassisliklari bo'yicha o'quv dasturlari va qo'llanmalarni tayyorlashda, ilmiy-pedagogik kadrlar malakasini oshirishda va O'zbekiston tarixini yozishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xorazm vohasi urug'doshlik tuzumi va qadimgi davlatchilik tarixi mavzusi bo'yicha chiqarilgan ilmiy xulosalar va takliflar asosida:

Xorazm vohasi urug'doshlik tuzumining Markaziy Osiyo dashtlari tabiiy-geografik sharoitida, o'xshash turmush tarzi va bir xil ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi urug'chilik jamoalaridan iborat etnik hududlarining shakllana boshlanishi jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy uyushma tizimi, ichki va tashqi aloqalar hamda o'zaro madaniy iqtisodiy ta'sir jihatlari ochib berilganligi bo'yicha natijalardan loyihada foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 2025-yil 4-fevraldagi 10/319-son ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalardan, foydalanish loyihani yangi ma'lumotlar bilan boyitishga va uning ilmiy ahamiyatini oshirishga xizmat qilgan;

Quyi Amudaryo havzasida tosh davrining so'nggi bosqichlarida ovchilar va baliqchilar xo'jalik-madaniy tipiga asoslangan urug'chilik jamoalari orasida aholi sonining ortib borishi va foydali resurslarning cheklanishi sababli, oziq-ovqat mahsulotlarni qo'lga kiritishdagi jamoatchilik tamoyili moddiy ishlab chiqarishning o'sishiga to'siq bo'lib, o'z ahamiyatini yo'qotishi va bronza davrida tashqi migratsiyalar hamda etnomadaniy va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar yuzaga kelishi natijasida ishlab chiqarish xo'jalikning paydo bo'lishi zarurati haqidagi xulosalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali DUK qoshidagi "O'zbekiston tarixi" telekanali "Ta'lim va taraqqiyot", "O'zbekiston yoshlari" va "O'zbekiston tarixi" ko'rsatuvining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2025-yil 7-fevraldagi 05-09-141-son ma'lumotnomasi). Ko'rsatuvda namoyish etilgan ilmiy materiallar

teletomoshabinlarning qadimgi Xorazm tarixiga oid bilimlarini oshirishga xizmat qiladi;

Orolbo‘yi hududlarini inson tomonidan o‘zlashtirishning tarixiy bosqichlari, qadimiy jamoalar hududiy joylashish xususiyatlari va chegaralarining o‘zgarib borish omillari, o‘troq, yarim o‘troq va ko‘chmanchi joylashish shakllarining hududiy ajralib chiqishi arxeologik ma‘lumotlar va yangi tuzilgan xaritalar asosida ochib berilgan kabi yangiliklardan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi “O‘zarxiv” agentligi faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston “O‘zarxiv” agentligi 2025-yil 18-yanvardagi NR67513878-son dalolatnomasi). Ushbu ma‘lumotlar O‘zbekiston tarixiga oid bilimlarning yanada mustahkamlanishiga xizmat qilgan;

Xorazm vohasi va Sharqiy Orolbo‘yida aniqlangan arxeologik ma‘lumotlarning tahlili asosida Orolbo‘yi ilk davlatchilik tarixini yangicha davrlashtirish va uning rivojlanishini mil.avv. IX-VIII asrlar – harbiy-siyosiy uyushmalar tashkil topishi davrga va mil.avv. VII oxiri – VI asr o‘rtalarida Xorazmning janubi-g‘arbida markazi Ko‘zaliqir qal‘asida joylashgan davlatchilik davriga ajratish zaruriyati isbotlanganligi bo‘yicha xulosalardan Ichanqal‘a davlat muzey qo‘riqxonasida foydalanilgan. (O‘zbekiston Madaniyat vazirligining 2025-yil 7-fevraldagi 03-12-17-727-son ma‘lumotnomasi) Natijada, Xorazm vohasi urug‘chilik tuzumi va davlatchilik shakllanish davri xronologik doirasidagi tarixi, manbalar tahlili, tarixiy geografiya, me‘morchilik va binokorlik usullari, madaniyat va etnik jarayonlar mazmunini muzey tashrifchilari uchun ochib berishga xizmat qilmoqda. Bunday yondashuv O‘zbekiston tarixi bo‘yicha bilimlarni boyitishga va madaniy merosni targ‘ib qilishga imkon beradi;

Antik davrda (mil.avv. IV – milodiy III asrlar) Xorazm davlati tarixida jamiyatning tuzilishi, hududiy-ma‘muriy bo‘linishi va boshqaruvi, xususiy mulk va soliq tizimi, din va davlatchilik kabi masalalari hamda Xorazm sivilizatsiyasi yutuqlarini belgilab beruvchi mahalliy yozuvi va davlatchilik taraqqiyoti darajasini o‘zida aks ettiruvchi san‘atning o‘rni va ahamiyati, Markaziy Osiyodagi Yunon-Baqtriya, Parfiya va Kushon podshohliklarida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va madaniyati bilan qiyoslangan holda uning o‘rni va ahamiyati ochib berilganligi haqida olingan ilmiy natijalardan foydalanilgan. (O‘zbekiston Madaniyat vazirligining 2025-yil 7-maydagi 02-11-17-1568-son ma‘lumotnomasi). Mazkur natijalar qadimgi Xorazm tarixining rivojlanish bosqichlariga oid ma‘lumotlarni yoshlar orasida ommalashtirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 9 ta ilmiy anjumanlarda, shu jumladan 6 ta xalqaro konferensiya va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 32 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan 1 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarning asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 22 ta maqola, jumladan, 18 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda e‘lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, to‘rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va shartli qisqartmalar ro‘yhati hamda ilovalardan iborat bo‘lib, ishning tadqiqot qismi 238 sahifani tashkil etadi.

Dissertatsiyaning asosiy mazmuni

Dissertatsiyaning “Kirish” qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustovor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, ishning maqsadi va vazifalari, ob‘ekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning amaliyotga joriy qilinishi va aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiya tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Muammoning nazariy jihatlarini va tarixshunosligi”** deb nomlangan. Uning uchta bandida qadimgi urug‘doshlik tuzumini o‘rganishning ba‘zi nazariy jihatlarini, Xorazm vohasida urug‘chilik tuzumi tarixini o‘rganish natijalari hamda qadimgi Xorazm davlatchiligi tarixiga oid ilmiy qarashlar va yondashuvlar tahlil qilingan.

Jahon tarixshunosligida urug‘doshlik tuzumining tashkil topishi va rivojlanishi bosqichlari, insoniyatning qadimgi tarixidagi ijtimoiy aloqalar, xo‘jalik va madaniyat sohalarida tub o‘zgarishlar sodir bo‘lgan, muhim davr sifatida e‘tirof etilgan⁴.

Markaziy Osiyo tarixidagi qadimiy urug‘chilik jamoalarning ijtimoiy-iqtisodiy tizimini, turmush tarzi, urf-odatlarini va ma‘naviy madaniyatini o‘rganish jarayonida arxeologiya va etnografiya ma‘lumotlari asosiy manba hisoblanib, yangicha qarashlar qatorida ilgari ishlab chiqilgan va fanda qabul qilingan tushunchalar, atamalar va ibtidoiy jamiyat tarixiga oid davrlashtirish tizimidan foydalaniladi. XIX asr Yevropaning etnologiya va ijtimoiy antropologiya sohalarida vujudga kelgan g‘oyalari asosida⁵, XX asr tarix fanida “ibtidoiy urug‘chilik jamoasi”, “urug‘chilik tuzumi” va xorijiy adabiyotlarda yozuv yaratilmagan uzoq o‘tmishga oid “tarixga qadar”- “prehistori” kabi tushunchalarning qo‘llanilishini hisobga olish lozim⁶.

XX asr o‘rtalarida ilk va rivojlangan urug‘doshlik tuzumining so‘nggi paleolit, mezolit, neolit davrlarga mansub qo‘lga kiritilgan arxeologik ma‘lumotlarning atroflicha o‘rganila boshlanishi natijasida tosh davri madaniyatlarining mazmun-mohiyatini yangicha anglash, xududlar va geografik sharoitga qarab, ularning ichida o‘ziga xos jihatlarni ajratish, madaniy yangiliklar va an‘analarining qabilalararo iqtisodiy ayirboshlash aloqalari natijasida tarqalishi hamda avval fanda qo‘llanilgan ibtidoiy madaniyatning bir tushdagi taraqqiyoti g‘oyalardan voz kechish kabi qarashlar katta ahamiyat kasb etdi⁷.

⁴ Дрэггер Л., Першиц А.И. Организация родовая или родовой строй // Свод этнографических понятий и терминов. – М.: Наука, 1970. – С.121-124.

⁵ Аширов А., Атаджанов Ш. Этнология. – Тошкент: Миллий кутубхона нашриёти, 2007. – Б.44-55.

⁶ Абдуллаев Ў.И. Ўрта Осиёда ибтидоий жамоа тузуми ва илк давлатчилик тарихи. – Тошкент: Lesson Press, 2019. – Б.7-9.

⁷ Брюсов А.Я. О характере и влиянии на общественный строй обмена и торговли в доклассовом обществе // СА. – М.: 1957. Вып XXVII. – С.24-28.; Формозов А.А. Развитие локальных вариантов и спорные проблемы этнокультурной истории каменного века // Успехи среднеазиатской археологии. – Л.: Наука, 1972. Вып 2. –

Shuningdek, tadqiqotda insoniyat rivojlanishi yo‘llarining turli tumanligi, qadimgi madaniyatlarning notekis rivojlanishi, madaniyat hodisalarini geografik sharoit bilan bog‘lash, urug‘chilik jamoalari o‘rtasida aloqalar, o‘zaro ta‘sir va migratsiyalarning etnomadaniy jarayonlar o‘zgarib borishidagi ahamiyati qayd etilgan.

Quyida Amudaryoning Oqchadaryo o‘zani havzasida Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan Jonbos 4 deb atalgan neolit davriga oid makonida olib borilgan tadqiqotlar Xorazm vohasining urug‘chilik tuzumini o‘rganishga yo‘l ochib berdi va keyingi yillarda topib tekshirilgan shunday makonlar guruhi “Kaltaminor madaniyati” degan umumiy nom ostida birlashtirildi⁸.

S.P.Tolstov, A.S.Kes, Ya.G‘.G‘ulomov, A.V.Vinogradov, M.A.Itina va E.D.Mamedovlar tomonidan, qadimgi insonning dashtlarda istiqomat qilish, tabiiy resurslardan foydalanishi, xo‘jalik sohasini rivojlantirishida tabiiy sharoitning ahamiyati, inson va atrof muhitning o‘zaro ta‘siri hamda paleoekologiya masalalari bo‘yicha Markaziy Osiyo miqyosida dastlab muhim ilmiy ma‘lumotlar qo‘lga kiritildi⁹. Shuningdek, Jonbos 4 makoni arxeologik materiallari asosida neolit davri urug‘doshlik jamoasining turmush tarzi, madaniyati va ijtimoiy tuzilishi ilk bor qayta tiklandi¹⁰.

Tadqiqotda XX asrning ikkinchi yarmi – XXI asr boshlarida keng arxeologik izlanishlar tufayli, Quyi Amudaryo havzasi, Ustyurt va Ichki Qizilqum hududlari hamda Quyi Zarafshon vohasida so‘nggi paleolit, mezolit va neolit davrlar urug‘doshlik tuzumi tarixiga oid bilimlarning kengayib borishi va yangicha qarashlarning rivojlanishi ochib berilgan. Ilmiy adabiyotlarda qadimgi makonlarni ta‘riflab berish, arxeologik topilmalarning funksiyalarini aniqlash qatorida, mavjud ma‘lumotlardan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni qayta tiklash katta ahamiyat kasb etgan¹¹.

C.12-14.; Коробкова Г.Ф. Культуры и локальные варианты мезолита и неолита Средней Азии // СА. – М.: 1975. – № 3.

⁸ Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко-археологического исследования. – М.: МГУ, 1948. – С.60-64; o‘sha muallif. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. – Toshkent: Fan, 1964. – B.74-78.

⁹ Толстов С.П., Кесь А.С. Проблемы древнего течения Амударьи в свете новейших геоморфологических и археологических данных // Материалы ко второму съезду Географического общества. – М.: 1954. – С.141-145; Кесь А.С. Природные факторы, обуславливающие расселение древнего человека в пустыне Средней Азии // КСИЭ. Вып. XXX. – М.:1958. – С.3-15.; Гуломов Я.Ф. Хоразмининг суғорилиш тарихи. – Toshkent: Fan, 1959.; Виноградов А.В., Итина М.А., Кесь А.С., Мамедов Э.Д. Палеогеографическая обусловленность расселения человека в пустынях Средней Азии // Первообытный человек, его материальная культура и природная среда в плейстоцене и голоцене. – М.:1974. – С.290-295.

¹⁰ Толстов С.П. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab... B.78.

¹¹ Виноградов А.В. Неолитические памятники Хорезма //МХЭ. – М.: 1968. Вып.8. – 178 с.; Гулямов Я.Г., Исламов У., Аскарлов А. Первообытная культура и возникновение орошаемого земледелия в низовьях Зарафшана. – Ташкент: Fan, 1966. – С.87-99.; Виноградов А.В. Древние охотники и рыболовы Среднеазиатского Междуречья // Тр. ХАЭЭ. – М.: 1981. Т. XII. – С.135-147.; Бижанов Е.Б. Памятники каменного века впадины Шахпахты //Археология Приаралья. – Toshkent: Fan, 1984. Вып.4. – С.8-20.; Виноградова Е.А. Первые палеолитические находки в Султануиздаге // Приаралье в древности и в средневековье. – М.: ИВЛ, 1998. – С.75-77.; Хужаназаров М.Ф., Брунет Ф., Шимчак К. Археологические исследования Узбекско-французской экспедиции на памятниках Кызылкумов // Археологические исследования в Узбекистане, 2004-2005 гг. – Ташкент: Fan, 2006. – С.244-247; Brunet F. Pour une étude de la culture néolithique de Kelteminar. Uzbekistan // Paleorient. – №31/2.2005. – Pp.87-106.; o‘sha muallif. Comment penser la néolithisation en Asie Centrale (X-IV millénaires)? L’émergence de nouveaux modèles de sociétés entre sédentaires et nomades // Paleorient. – №37(1).2011. – Pp.187-204.; Холматов Н.У. Мезолит и неолит нижнего Зарафшана. – Toshkent: Fan, 2007. –

Bronza davri Xorazm vohasida urug'chilik jamoalarning madaniyati tarixi S.P.Tolstov va M.A.Itinalarning ishlarida keng yoritilgan¹². Ushbu tadqiqotchilar va B.V.Andrianovning asarlarida bronza davridan boshlab, voqa xo'jaligida sun'iy sug'orish-irrigatsiya tizimiga asoslangan dehqonchilik sohasining katta ahamiyati qayd etilib,¹³ mazkur yondashuv adabiyotlarda ham quvvatlandi¹⁴.

XXI asr boshlarida bu masala A.Asqarovning maqolasida va boshqa ishlarda qayta baholanib, Xorazmda bronza davri jamoalarning xo'jaligi asosini chorvachilik tashkil etganligi va dehqonchilik cheklangan holda rivoj topganligi haqida so'z yuritilgan¹⁵.

Qadimgi Xorazm davlatchiligi tarixiga oid ilmiy adabiyotlar hamda mavjud qarashlar va yondashuvlar uch davrga ajratilib ko'rib chiqilgan. Ulardan birinchisi XIX asrning 70-yillari – XX asr boshlariga to'g'ri keladi. Bu davrda yevropa sharqshunoslari ishlarida ilk yozma manbalar asosida Xorazmning tarixiy geografiyasi tarixi va madaniyati masalalari yoritilgan.¹⁶

XX asr 30-80-yillarini o'z ichiga olgan ikkinchi davrda yozma manbalar qatorida arxeologik ma'lumotlarning tahlili muhim o'rin egallagan. Bu davrda qadimgi Xorazm podshohligi yoki "Katta Xorazm" siyosiy birlashuvi hamda "xorasmiylar" – qadimiy xorazmliklarning tarixiy geografiyasi muammolari yetakchi ilmiy mavzular sifatida bahs-munozaralarga aylandi.

O'tgan asrning 30-yillari oxirlarida nemis olimi I.Markvart Ahamoniylar hukmronligiga qadar, qadimgi Xorazm podshohligi to'g'risida masalani ilgari surgan. Bu davlatning hududiy chegarasini belgilashda yunon muallifi Gekateyning asarida "xorasmiylar" deb atalgan qadimgi xalqning janubda, Parfiya va Baqtriya o'rtasida pasttekislik va tog'larda joylashtirilishi¹⁷ Gerodotning xorasmiylar haqidagi ma'lumotlari¹⁸ katta ahamiyat kasb etgan. Ingliz sharqshunosi V.Tarn mazkur xorasmiylarning janubdagi hududlarini qadimgi forslar zabt etganidan so'ng, ular Quyi Amudaryo havzasiga ko'chib ketishgan deb yozgan¹⁹.

S.P.Tolstov Ahamoniylar davridan ilgari Xorazm siyosiy uyushmasining markazi Quyi Amudaryo havzasida – Janubiy Orolbo'yida joylashgan va xuddi o'sha

C.124-138.; Сайфуллаев Б.К., Хужаназаров М.М.: Джуракулова Д. М. Новые данные по палеолиту Кызылкумов // История и археология Турана. – Самарканд, 2017. – №3. – С. 31-36.

¹² Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – М.: ИВЛ, 1962. – С.50-59.; Итина М.А. О месте тазабагьябской культуры среди культур степной бронзы // СЭ. – М.: 1967. – № 2. – С. 64-72.; o'sha muallif. История степных племен Южного Приаралья // Тр.ХАЭЭ. – М.: 1977. Т.Х. – 239 с.

¹³ Толстов С.П. По древним дельтам...С. 74-77.; Итина М.А. История степных племен Южного Приаралья ... С.176-182.; Андрианов Б.В. Древние оросительные системы Приаралья. – М.: Наука, 1969. – С.107-108.

¹⁴ Заднепровский Ю.А. Памятники андроновской культуры //Средняя Азия в эпоху камня и бронзы. – М. – Л. Наука, 1966. – С.227.

¹⁵ Асқаров А. Қадимги Хоразм тарихига оид баъзи бир масалалар // Ўзбекистон этнологияси: янги қарашлар ва ёндашувлар. – Тошкент, 2004. – Б.76-84.; Баратов С. Некоторые проблемы исследования древних культур Хорезма // О'zbekiston tarixi. 2007. 4-сон. – С.24-25.

¹⁶ Tomashek W. Centralasiatische studien. – Wien, 1877. Bd.I. – 118 s.; Geiger W. Ostiranische Kultur in Altertum. – Erlangen, 1882. – S.28-31.; Tomashek W. Chorasmia // Pauly's Real Encyclopaedie der Klassischen Altertumswissenschaft. – Stuttgart: 1884. Bd.3. – S.2407.; Hermann A. Alte geographie des unteren Oxusgebiets. – Berlin: 1914. – S.50-51.; Иностранцев К.А. О домусульманской культуре Хивинского оазиса. – СПб.: Сенатская типография, 1911. – С.2-29.

¹⁷ Marquart I. Wehrot und Arang. – Leiden: 1938. – S.8-9.

¹⁸ Геродот. История. В девяти книгах // Перевод и примечания Г.А. Стратановского. – Л.: Наука, 1972. – Кн. III. 117.

¹⁹ Tarn W. Greeks in Bactria and India. – Cambridge: 1938. – Pp.478-488.

davrda Xorazmning buyuk irrigatsiya tarmoqlari yaratildi deb fikr yuritgan²⁰. Bu yondashuvda “Osiyocha ishlab chiqarish” usuliga asoslangan “Sharq yo‘li” konsepsiyasi, ya‘ni ilk davlatning xo‘jaligi asosini sun‘iy sug‘orish ziroatkorligi tashkil etganligiga oid g‘oya yaqqol namoyon bo‘lib irrigatsiya asosida Xorazm vohasida quldorlik ishlab chiqarishga o‘tish va quldorlik davlatining vujudga kelishiga sharoit yaratilgan deb qayd etilgan.²¹

XX asrning 50-80 yillari tarixshunosligida Xorazmning ilk davlati muammosi munozarali mavzuga aylandi. Sharqshunoslar V.B. Xenning va I.Gershevich Xorazm podshohligi markazini Marv va Hirot vohasida joylashtirib turli xalqlarni birlashtirgan yirik davlat haqida masalani ro‘yyobga chiqarganlar²². Bu muammo “Katta Xorazm” davlati g‘oyasi sifatida fanda o‘rin olib, munozarali mavzuga aylandi²³.

O‘tgan asrning 70-yillarida I.V.Pyankov xorasmiylar va “Katta Xorazm” muammosini atroflicha o‘rganib, Xorazm podshohligining Markaziy Osiyo janubida Midiya va Baqtriya davlatlari o‘rtasida joylashganini faraz qilgan²⁴. M.G.Vorob‘yova va I.N.Xlopinning ishlarida bunday yondashuv inkor etilgan²⁵. M.A.Dandamaev Xorazm ilk davlatchiligi tarixiga oid “irrigatsiya nazariyasi”ga tanqidiy baho bergan.²⁶ Shu qatorda qadimiy baqtriyaliklar va marg‘iyonaliklarning janubdan Xorazm vohasiga kirib kelishi va mahalliy aholi bilan qorishib ketishi natijasida yozma manbalarda “xorasmiylar” degan xalq vohada paydo bo‘lishi haqida masala ilgari surilgan.

XX asrning 90-yillari – XXI asr birinchi choragi qadimgi Xorazm davlatchiligi tarixini o‘rganishning uchinchi davri hisoblanadi. Bu davrda ilgari ilmiy qarashlarni qayta ko‘rib chiqish boshlanib, Ahamoniylar hukmronligidan oldin Xorazmda – katta davlatning mavjudligiga mansub qarashlarga hech qanday asoslar bo‘lmagani to‘g‘risida va “Katta Xorazm” konsepsiyasidan voz kechish haqida masalalar ilgari surildi²⁷. A.Asqarov, S.Baratov, E.V.Rtveladzening ishlarida xorasmiylarning janubdan Quyi Amudaryo hududlariga migratsiyalarining sabablari, fors podshohi Doro I ning og‘ir soliq siyosati yoki Kir II ning yurishlari bilan bog‘liq holda talqin qilindi.²⁸ Aksincha, S.B.Bolelov, M.M.Mambetullayev va V.N.Yagodinlarning

²⁰ Толстов С.П. Древний Хорезм...С.49,341.

²¹ Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – М.: ИВЛ, 1962. – С.89.

²² Henning W.B. Zoroaster: Politician or Witch-Doktor. – Oxford: 1951. – Pp.41-43.; Gershevitch I. The Avestan hymn to Mithra. – Cambridge: 1959. – Pp.15-17.

²³ Дьяконов М.М. Очерк истории древнего Ирана. – М.: Наука, 1961. – С.64.; Пьянков И.В. К вопросу о сфере влияния доахеменидского Хорезма // ВДИ. – М.: 1963. – № 1. – С.175.

²⁴ Пьянков И.В. Хорасмии Гекатея Милетского // ВДИ. – М.: 1972. – № 2. – С.3-23.

²⁵ Воробьева М.Г. Проблема “Большого Хорезма” и археология // Этнография и археология Средней Азии. – М.: Наука, 1979. – С.40-41.; Хлопин И.Н. Историческая география южных областей Средней Азии. – Ашхабад, 1983. – С.34-40.

²⁶ Дандамаев М.А. Политическая история Ахеменидской державы. – М.: Наука, 1985. – С.31-32.

²⁷ Рапопорт Ю. А. Краткий очерк истории Хорезма в древности // Приаралье в древности и средневековье. – М.: ИВЛ, 1998. – С.28-29.; Эгамбердиева Н.А. Археологические и археографические исследования истории Древнего Хорезма: Автореф. дис...канд. истор. наук. – Нукус: Институт истории, археологии и этнографии ККО АН Узбекистана, 2001. – 20 с.

²⁸ Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. – Тошкент: Университет, 2007. – Б.114.; Баратов С. Некоторые проблемы археологических исследований древних культур Хорезма // O‘zbekiston tarixi. 2007. 4-сон. – Б.32-33.; Ртвеладзе Э.В. Государственное объединение “Большой Хорезм” – миф, созданный учеными или историческая реальность? // Хорезм в истории государственности Узбекистана. – Ташкент: 2013. – С.43-44.

maqolalarida qadimgi Baqtriya aholisi guruhlarining Xorazmga migratsiyasi oqibatida Ko‘zaliqir madaniyatining paydo bo‘lishi uqtirib o‘tilgan²⁹.

Xorazmda ilk davlatning rivojlanishi O.A.Vishnevskaya va Yu.A.Rapoport tomonidan mil. avv. VII asr oxirlari – VI asr o‘rtalari bilan belgilangan³⁰. Shuningdek, Xorazmda ilk davlat alohida qal’alar (Hazorasp, Ko‘zaliqir) atroflarida shakllanganligi to‘g‘risida xulosa chiqarilgan³¹.

XXI asr birinchi choragida Markaziy Osiyo, shu jumladan, Amudaryo havzasi xududlarida ilk davlatchilik talqin qilinishi xususiyatlari ochib berildi³² hamda qadimgi Xorazm tarixining ayrim dolzarb muammolari ko‘rib chiqildi.³³

Antik davri Xorazm tarixi va madaniyati o‘rganishiga S.P.Tolstov, Ya.G‘.G‘ulomov, M.G.Vorob’yova, Ye.Ye.Nerazik, Yu.A.Andrianov, Yu.A.Rapoport va boshqa olimlarning qo‘shgan hissasi, olib borilgan tadqiqotlarning natijalari va tarixshunoslik masalalari XX asr 80-90 yillarida umumlashtirilgan ishlarda ko‘rib chiqilgan³⁴.

Shuningdek, XXI asrning birinchi choragida antik davri davlatchilik tarixini, shaharsozlik, me‘morchilik va mudofaa inshootlar, hunarmandchilik, harbiy ish va savdo yo‘llari masalalarining yoritilishi muhim ahamiyat kasb etdi.³⁵ Shu qatorda,

²⁹ Болелов С.Б. Некоторые итоги археологических работ на Хумбузтепа // ОНУ. – Ташкент, 1999. – №9-10. – С.89-90.; Мамбетуллаев М. Социально-экономические и политические факторы возникновения и развития городов Хорезма эпохи античности // ИМКУ. – Ташкент. 2002. Вып. 33. – С.126-128; Ягодин В.Н. Древнейшая государственность и проблема “Большого Хорезма” // Вестник ККО АН РУз. – Нукус, 2007. – С.70-78.

³⁰ Вишневецкая О.А., Рапопорт Ю.А. Городище Кюзели-Гыр. К вопросу о раннем этапе истории Хорезма // ВДИ. – М.:1997. – № 2. – С.150.

³¹ Ягодин В.Н. Генезис и формирование раннехорезмийской государственности // История государственности Узбекистана. Т.1. – Ташкент: “Узбекистан”, 2009. – С.117,125.

³² Абдуллаев У.И. Ўрта Осиёда ибтидоий жамоа тузуми ва ilk давлатчилик тарихи: Тарих фан. доктор (DSc) дисс ... автореф. – Тошкент: ЎзМУ, 2019. – 32 б.; Эгамбердиева Н.А. Амударё хавзаси худудларининг қадимги маданияти (мил. avv. VIII – милодий IV асрлар):Тарих фан.доктори (DSc) дисс ... автореф. – Тошкент: ЎзМУ, 2021. – 32 б.

³³ Қдырнийзов М. Ш., Ягодин В.Н., Мамбетуллаев М. М.: Сагдуллаев А.С., Қдырнийзов О.Ш. История цивилизации Хорезма. – Нукус: “Qoraqalpogiston”, 2017. – С.60-68.; Курбанова Д.Ш. Хоразм воҳасининг қадимги ва ilk ўрта асрлар маънавий маданияти: Тарих фан.фалсафа докт.(PhD) дисс... автореф. – Тошкент: ЎзМУ, 2019. – 22 б., Маткаримов Х.О. Хоразм воҳасида археологик тадқиқотлар тарихи (қадимги даврга оид тарихий реконструкция муаммолари): Тарих фан.фалсафа. докт. (PhD) дисс... автореф. – Нукус: ҚарДУ, 2021. – 23 б.

³⁴ Ягодин В. Н., Никитин А. Б., Кошеленко Г. А. Хорезм // Древнейшие государства Кавказа и Средней Азии. – М.: Наука, 1985. – С.317-337.; Мамбетуллаев М. История и культура Южного Хорезма античной эпохи (города и поселения в IV в.до н.э. – IV в.н.э.): Автореф дисс...доктор.ист.наук. – Ташкент: Институт истории АН РУз,1994. – С.57.

³⁵ Мамбетуллаев М.М. Социально-экономические и политические факторы возникновения и развития городов Хорезма...; Неразик Е. Е. Древние города Хорезма и пути их развития (IV в.до.н.э. – IV в.н.э) // Центральная Азия. Источники, история, культура. – М.: ИВЛ, 2005. – С.543-559.; Kidd F., Negus Cleary. – М.: Yagodin V. N., Betts A. Ansient Chorasmian Mural Art // Bulletin of the Asia Institute. 2004. Vol. 18. – Pp.69-96.; Ходжаниязов Ф. Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари. – Тошкент: O‘zbekiston, 2007. – 216 б.; Вайнберг Б.И. Водный торговый путь по Амударье и культовые центры вблизи него // Проблемы истории, филологии, культуры. – Москва. – Магнитогорск, 2005. Вып. XV. – С.13-18.; Болелов С.Б. Хорезмийское государство // История государственности Узбекистана. Т.1. – Ташкент: “Узбекистан”, 2009. – С.193-210.; Болелов С. Б., Ртвеладзе Э.В. Древнехорезмийское государство. Социально-экономический аспект // Хорезм в истории государственности Узбекистана. – Ташкент, 2013. – С.72-85.; Egamberdiyeva N.A. Amudaryo havzasi hududlarining qadimgi madaniyati. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 255 б.; Yagodin.V.N., Bolelov.S.B. Xorazm – saroylar, ibodatxonalar va zardushtiylik yurti // O‘zbekiston arxeologik xazinalari. Makedoniyalik Iskandardan Kushonlar saltanatigacha. – Berlin, 2023. – B.129-142.; Kudaybergenov S. Sh. Orolbo‘yi qadimgi yo‘llarining tarixi: Tarix fan. falsafa doktori (PhD) diss...avtoref. – Nukus: Qoraqalpoq davlat universiteti, 2023. – 24 б.; Сагитов Б.М. Оролбўйида қадимги ҳарбий иш ва мудофаа тизими тарихи. – Бухоро: Дурдона нашриёти, 2024. – 164 б.

Xorazm davlati rivojlanishining shart-sharoitlari, qadimgi davlatning tashkiliy – boshqaruv vazifalari, aholining hududiy-ma'muriy joylashishning tuzilishi va boshqaruv shakli kabi masalalar yetarlicha ko'rib chiqilmagan.

Tadqiqotning birinchi bobi xulosasida Xorazm vohasida urug'doshlik tuzumi va davlatchilik tarixini madaniy jarayonlarning ko'p xilligini hisobga olib o'rganishning muhimligi uqtirilgan. Qadimgi Xorazm davlatining kelib chiqishi va rivojlanish masalasida Xorazm podshohligi yoki "Katta Xorazm" davlati (siyosiy birlashmasi) haqida g'oya quldorlik davlat to'g'risida konsepsiya o'z isbotini topmaganligi sababdan, vohada ilk davlatchilik muammosini qayta ko'rib chiqish zarurati aytib o'tilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **"Orolbo'yi hududlarida urug'doshlik tuzumining rivojlanishi"** deb nomlangan. U uchta paragrafdan iborat bo'lib, tosh va bronza davrida hududlarni o'zlashtirish jarayonlari, tosh davri xo'jaligi, madaniyati va ijtimoiy aloqalari, ilk migratsiyalar bronza davri urug'doshlik tuzumi tarixi masalalari ko'rib chiqilgan.

So'nggi yillarda tosh davrida inson tomonidan hududlarni o'zlashtirish va xo'jalik-madaniy tiplarning shakllanishi, Markaziy Osiyoda tarixiy-madaniy viloyatlarning paydo bo'lishi va etnik geografiyasi muammolari tarix fanining dolzarb ilmiy yo'nalishiga aylandi.³⁶

Orolbo'yi, Qoraqum va Qizilqum hududlarida olib borilgan tadqiqotlar asosida, qadimgi jamoalarning dashtlarda joylashish uchun qulay va aksincha, noqulay paleoekologik sharoit hamda turli tarixiy bosqichlarga oid atrof-muhitda antropogen ta'sirning izlari aniqlangan.³⁷

Tadqiqotda G'arbiy Orolbo'yidagi Ustyurt, Xorazm vohasida Sulton Uvays tog'larining yon bag'irlari inson tomonidan egallab olinishining jihatlari va tosh davriga mansub makonlarning hududiy joylashishi xususiyatlari ochib berilgan.

Arxeologik ma'lumotlar guvohlik berishicha, ilk urug'doshlik tuzumi davri (mil. avv. VI ming yilikka qadar) yodgorliklarning aksariyat qismi mavsumiy ko'chib yurgan ovchi-termachilarga tegishli bo'lgan³⁸. Neolit davrida (mil. avv. VI-IV ming yilliklar) Markaziy Osiyoning pasttekislik mintaqasida urug'doshlik jamoalarning hududiy joylashish chegaralari ancha o'zgarib, mahalliy xususiyatga ega madaniyatlarning variantlari vujudga keldi³⁹. Xorazm vohasida Amudaryoning

³⁶ Сагдуллаев А.С., Холматов Н.Ў., Абдуллаев У.И. ва бошқа. Марказий Осиёда тарихи-маданий вилоятларнинг шаклланиши ва этник географияси муаммолари. – Тошкент: Университет, 2020. – Б.10-25.

³⁷ Виноградов А.В., Мамедов Э. Д. Первобытный Лявлякан // Этапы древнейшего заселения и освоения Внутринних Кызылкум // МХЭ. – М.: 1975. Вып. 10. – С.265-275.; Виноградов А. В., Мамедов Э. Д. Ландшафтно-климатические условия среднеазиатских пустынь в голоцене // ИМКУ. – Ташкент, 1974. Вып.11. – С.29-31.; Мамедов Э. Палеоэкология человека каменного века в пустынях Средней Азии // Культура и искусство древнего Хорезма. – М.: Наука, 1981. – С.81-87.

³⁸ Настюков Н.З., Праслов Н.Д. Новые памятники каменного века на западном чинке Устюрта // Успехи среднеазиатской археологии. – Л., 1972. Вып. 1. – С.36-38.; Бижанов Е. Находки памятников палеолита на юго-восточном Устюрте // Вестник ККФ АН УзССР. 1979. – №3. – С.48-50.; Виноградова Е.А. Первые палеолитические находки в Султан-уиздаге // Приаралье в древности и средневековье. – М.: Наука, 1998. – С.74-77.; Сайфуллаев Б.К., Хужаназаров М.М.: Джуракулова Д.М. Новые данные по палеолиту Кызылкумов...

³⁹ Виноградов А. В. О локальных вариантах неолитической культуры Кызылкумов // КСИА. – М.: 1970, Вып. 122. – С.31-36.; Холматов Н. У. Происхождение и судьба неолитических культур Средней Азии // Формирование историко-культурных областей в Центральной Азии и проблемы этнической географии. – Ташкент, 2018. – С.29-31.

Oqchadaryo o'zani havzasidan boshlab Quyi Zarafshon sohillarigacha keng hududlarda joylashgan urug'chilik jamoalari (Kaltaminor madaniyati) daryolar vohalarida kulbasimon turar joylarda yashaganlar.⁴⁰ Bu davrda demografik omillar, aholining tabiiy o'sib borishi oqibatida, ovchilik va baliqchilik xo'jalik sohasiga asoslangan urug'doshlik jamoalari, ov o'ljasiga boy yangi hududlarni egallab olishga harakat qilishgan.

Bronza davrida mil. avv. II ming yillikning o'rtalariga kelib, Yevroosiyo dashtlaridan Srubnaya (Yog'ochband) – Andronovo madaniyati chorvador qabilalarning migratsiyalari natijasida, Xorazm vohasida Tozabog'yob madaniyati paydo bo'ldi. Neolit-eneolit davrlarda yashagan ovchilar va baliqchilarning joylarini, dehqonchilik ko'nikmalarni bilgan chorvadorlar egallab olishdi⁴¹. Manzilgohlarning aksariyat qismi Janubiy Oqchadaryo o'zani yon irmoqlari atrofida joylashgan. Mavjud ilmiy ma'lumotlar asosida Oqchadaryo havzasida madaniy landshaft belgilari ajratilgan.⁴²

So'nggi bronza davri Xorazm vohasida (mil. avv. X-VIII asrlar) Amirobod madaniyatiga oid aholining hududiy joylashish belgilariga ko'ra, oldingi davrga nisbatan yirik manzilgothlar vujudga kelib, urug'chilik jamoalari egallab olgan yerlar, xo'jalik maqsadlarda o'zlashtirilgan chegaralarga ega muayyan xududlar bilan belgilangan.⁴³

Tosh davri va ayniqsa, Kaltaminor madaniyati xo'jalik sohasi, ijtimoiy aloqalar, moddiy va ma'naviy madaniyatining o'rganishiga S.P.Tolstov, Ya.G'.G'ulomov, A.V.Vinogradov, O'.I.Islamov, M.D.Juraqulov, Ye.B.Bijanov va N.O'.Xolmatovlar katta hissa qo'shganlar. So'nggi paleolit, mezolit va neolit davrlari tarixi, odatda, matriarxat an'analari ustun bo'lgan jamoa tuzumi sifatida yoritiladi.⁴⁴ Tadqiqotda tosh davri urug'doshlik jamoalari tizimida maxsus bilimlar, tajriba va jismoniy kuch talab etgan mehnat jarayonlaridagi turli ishlarni olib borish va boshqarib turishda erkaklar yetakchi bo'lganligi haqida masala ilgari surilgan. Xususan, xo'jalik sohasida muhim vazifalarni amalga oshirish va turmush tarzining jamoaviy tamoyillari urug'chilik tuzumida ijtimoiy boshqaruvni yuzaga keltirgan.

Xo'jalik ishlari qatorida urug'doshlik a'zolarini umumiy turmush tarzi, urf-odatlar va diniy e'tiqodlari birlashtirgan. Tosh davri jamoalarining e'tiqodlarini o'rab olgan tabiiy muhitda ro'y bergan hodisalar belgilab bergan. Totemizm va animizm e'tiqodlari, tabiat kuchlariga va olovga sig'inish an'analari mifologik qarashlarning paydo bo'lishiga asos bo'lgan.

⁴⁰ Гулямов Я. Г., Исламов У., Аскарлов А. Первобытная культура и возникновение орошаемого земледелия в низовьях Зарафшана. – Ташкент: Фан, 1966. – С.28-38.; Виноградов А.В. Древние охотники и рыболовы ...С.130-149.; Холматов Н.У. Мезолит и неолит нижнего Зарафшана. – Ташкент: Фан, 2007. – С.134-135.

⁴¹ Толстов С.П. Древний Хорезм... С.65-67.; Итина М. А. Новые стоянки тазабагыбской культуры // МХЭ. – М.: 1959. – С.52-69.; Толстов С. П. По древним дельтам Окса и Яксарта...С.47-60.; Итина М.А. История степных племен Южного Приаралья // Тр. ХАЭЭ. – М.: 1977. Т. X. – С. 44-45.

⁴² Матякубов Х.Х. Қадимги Хоразм аҳолисининг ҳудудий жойлашиши хусусиятлари // ЎзМУ хабарлари. 2015. – № 5. – Б.48-52

⁴³ Итина М. А. Поселение Якке-Парсан 2 (раскопки 1958-1959 гг) // МХЭ. – М.: 1963. Вып 5. – С.107-128.; Ягодин В.Н. Поселение Амирабадской культуры Кават 2 // МХЭ. – М.: 1963. Вып. 4. – С.130-140.

⁴⁴ Матриархат // Свод этнографических понятий и терминов // Ответственные редакторы А.И.Першиц и Д.Трайде. – М.: Наука, 1986. – С.82-83.

Mezolit-neolit davrlarida urug'chilik jamoalari yashash joylarini o'zgartirib, bir hududdan ikkinchisiga ko'chish jarayonlarini jadallashtirgan. Buning natijasida ichki va tashqi aloqa yo'llarining tarmoqlari kengayib borgan⁴⁵. Ular madaniy-iqtisodiy aloqalar bilan birga jamoalarning uzoq masofalarda amalga oshirilgan migratsiyalarga ham xizmat qilgan⁴⁶. Migratsiyalar ko'p holatlarda madaniy va iqtisodiy taraqqiyotga asos bo'lib, aholining etnik jihatdan qorishib ketishga ko'maklashgan.

Antropologik tadqiqotlarga ko'ra, neolit davrida Xorazm vohasining jamoalari Yevroosiyo dashtlarida yashagan yevropeoidlar qabilalarga ko'proq qarindosh bo'lgan⁴⁷. Bronza davrida Orolbo'yi antropologik tipi ichida Andronovo madaniyati qabilalarga xos yevropeoidlar bilan birga Markaziy Osiyoning qadimiy aholisiga mansub O'rta yer dengizi irqi aniqlangan⁴⁸. Ushbu etnik holat Xorazm vohasi, Volgabo'yi, Ural va G'arbiy Qozog'iston dashtlarini qamrab olgan iqtisodiy-madaniy mintaqasi doirasida joylashganligi va aholi migratsiyalarini belgilab bergan.

Tozabog'yob madaniyatining Andronovo dasht madaniyatiga mansubligi tufayli, Xorazm vohasida bronza davri qabilalarining xo'jaligi chorvachilik-dehqonchilik shaklda rivojlanib, vohada chorvachilik yetakchi soha bo'lgan.

Bronza davri oila va urug'chilik jamoasi tizimini qayta tiklashda manzilgohlarda aniqlangan arxeologik materiallar muhim ahamiyatga ega. Xorazm vohasida kulbasimon yarim yerto'lalar turarjoylarning asosiy shakli bo'lgan. Ular kichik oilalardan iborat katta patriarxal oilaga tegishli edi.⁴⁹ Bunday oila jamoalari xususiy mulk, chorva va mehnat qurollariga ega bo'lishgan. O'zini iqtisodiy ta'minlagan ijtimoiy birlashma – katta patriarxal oilalar va muayyan hududlarda joylashgan urug'dosh jamoalari qabilalarga birlashgan, yashash joylardagi yer, suv resurslari dala va yaylovlardan jamoatchilik tamoyili asosida foydalanilgan.

Bronza davri Xorazm vohasida mayda chorva va qoramol boqish qatorida, tuyachilik va yilqichilik katta ahamiyat kasb etib, tuya va otlardan ulov transport vositalari sifatida foydalanilgan.⁵⁰ Xonaki hunarmandchilik sohasi ichida bronzaga ishlov berish muhim o'rin egallagan⁵¹. Mis va qalay konlari Markaziy Qizilqumning Tomditog'ida joylashgan⁵².

⁴⁵ Мавлонов Ў. М. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари. – Тошкент: Академия, 2008. – Б.14-19.; Кудайбергенов С. Ш. Оролбуйи қадимги давр алоқа йўллари тизимида // Марказий Осиё тарихи ва археологияси: анъаналар, инновациялар ва истиқболлар. – Тошкент, 2021. – Б.59-63.

⁴⁶ Толстов С. П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб...Б.79-80.; Черенцов В. Н. К вопросу о сложении уральского неолита // История, археология и этнография Средней Азии. – М.: Наука. 1968. – С.41-55.; Формозов А. А. О роли закаспийского и приаральского мезолита и неолита в истории Европы и Азии // СА. – М.: 1971. – №1. – С.22-35.; Виноградов А. В. О распространении наконечников стрел кельтеминарского типа // Этнография и археология Средней Азии. – М.: Наука. 1979. – С.8.; Матякубов Х. Қадимги Хоразмда миграция жараёнлари // Ўрта Осиё тарихи ва маданияти. – Тошкент, 2014. – Б.122-129.; Сағдуллаев А.С, Шайдуллаев А.Ш., Тогаев Ж.Э. О древневосточных и евразийских миграциях в Центральную Азию // Поволжская археология. – Казань, 2023. – №4. – С.113-128.

⁴⁷ Алексеев В. П., Аскарлов А. А., Ходжайов Т. К. Историческая антропология Средней Азии. – Ташкент: Фан, 1990. – С.101-105.

⁴⁸ Трофимова Т. А. Древнее население Хорезма по данным антропологии // МХЭ. – М.: 1959. Вып. 2. – С.15-29.

⁴⁹ Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта... С.47-52.; Итина М. А. История степных племён... С.203.

⁵⁰ Итина М. А. Раскопки стоянки Кават 3 в 1958 г. // МХЭ. – М.: 1963. Вып. 6. – С.106, рис. 3.

⁵¹ Итина М. А. История степных племен... С.129, рис. 67.; Итина М. А. Поселение Якке-Парсан 2 (раскопки 1958-1959 гг.) // МХЭ. – М.: 1963. Вып. 6. – С.20-21, рис. 12.

⁵² Пругер Е. Б. Обследование объектов древнего горного и металлургического промыслов в Кызылкумах // АО 1975. – М.: Наука, 1976. – С.533-534.

Tadqiqotning ikkinchi bobi xulosasida Xorazm vohasida ilk urug‘doshlik tuzumi – so‘nggi paleolit va mezolit davrlarga oid ma‘lumotlarning cheklanganligi, bu holatga nisbatan neolit davri madaniyati va ijtimoiy-iqtisodiy tarixini qayta tiklashda arxeologik manbalarning ahamiyati hamda demografik, ekologik va iqtisodiy sabablardan kelib, chiqqan migratsiyalarning, ayniqsa, bronza davri etnomadaniy va etnogenez jarayonlariga katta ta‘siri qayd etilgan.

To‘rtta banddan iborat tadqiqotning uchinchi bobi **“Orolbo‘yi sak qabilalari, Xorazm va mintaqaviy aloqalar”** deb nomlangan. Ushbu bobda Orolbo‘yi saklarning kelib chiqish muammosi, ilk temir davri etnik geografiyasi, dasht qabilalari, Xorazm madaniyatlari va Markaziy Osiyo sivilizatsiyalarining o‘zaro aloqalari hamda Xorazm vohasida ijtimoiy tuzum, qabilalar uyushmasi, ilk davlatchilik va boshqaruv tizimi tahlil qilingan.

Mil. avv. VIII asrning oxirlari – VII asr boshlarida Yevroosiyo dashtlarida chorvachilik xo‘jalikning tashkiliy tuzilishi o‘zgarib, yaylovlar mavsumlar bo‘yicha taqsimlana boshladi va ko‘chmanchi chorvachilik sohasi vujudga keldi⁵³. Orolbo‘yi ilk ko‘chmanchi chorvador qabilalarning tarixi va madaniyati ko‘proq arxeologik materiallari asosida o‘rganilgan.⁵⁴

Tadqiqotda mil. avv. VII-V asrlarda Sharqiy Orolbo‘yida Quyi Sirdaryo havzasida va Xorazm vohasining g‘arbida Sariqamishbo‘yi yerlarida joylashgan ilk saklarning kelib chiqish muammosining muhim jihatlari ochib berilgan.

S.P.Tolstov Sharqiy Orolbo‘yidagi ilk sak qabilalarning etnik va madaniy ildizlari masalasini Amirobod va Shimoliy Tagisken madaniyatlari bilan bog‘liq holda talqin qilgan⁵⁵.

Shuningdek mil. avv. IX-VIII asrlarga oid Shimoliy Tagisken maqbaralarining xom g‘ishtdan qurilishida janubiy sivilizatsiyalarning ta‘siri qayd etilgan⁵⁶. O.A.Vishnevskaya va M.A.Itinalar Orolbo‘yida saklarning tarqalishida Don daryosi va Quyi Volga oralig‘i dashtlarda yashagan ko‘chmanchi sarmatlarning migratsiyalariga katta ahamiyat berishgan.⁵⁷

Saklarning mozor qo‘rg‘onlaridan olingan antropologik materiallarini o‘rganish natijalariga ko‘ra saklar aralash yevropeoid-mongoloid irqiga mansubligi aniqlangan.⁵⁸

⁵³ Марков Г. Е. Некоторые проблемы возникновения и ранних этапов кочевничества в Азии // СЭ. – М.: 1973. – №1. – С.101-102.; Кузьмина Е.Е. Экология степей Еразии и проблемы происхождения номадизма. Возникновение кочевого скотоводства // ВДИ. – М.: 1997. – № 2. – С.81-94.

⁵⁴ Вишневская О. А. Культура сакских племен низовьев Сырдарьи в VII-V вв. до. н. э. // Тр. ХАЭЭ. – М.: 1973. Т.VIII. – 160 с.; Яблонский Л. Т. Саки Южного Приаралья (археология и антропология могильников). – М.: Институт археологии. РАН, 1996. – 185 с.; o‘sha muallif. Саки в дельте Окса. Теория и практика этногенетического исследования. – М.: 2015. – 312 с.; Юсупов А. Ш. Оролбўйи ilk сак қабилалари тарихи: Тарих фан. фалсафа докт. (PhD) дисс.. автореф. – Урганч: Урганч давлат университети, 2022. – Б.11-13.

⁵⁵ Толстов С. П. Среднеазиатские скифы в свете новейших археологических исследований // ВДИ. – М.: 1963. – № 2. – С.23-45.; Толстов С. П., Итина М. А. Саки низовьев Сырдарьи (по материалам Тагискена) // СА. – М.: 1966. – № 2. – С.151-175.

⁵⁶ Итина М. А. Взаимодействие земледельческих цивилизаций Средней Азии с их «варварской» периферией в эпоху бронзы // Древние цивилизации Востока. – Ташкент: Фан, 1986. – С.134.

⁵⁷ Вишневская О. А., Итина М. А. Ранние саки Приаралья // Проблемы скифской археологии. МИА. – М.: 1971. – № 177. – С.206-209.

⁵⁸ Трофимова Т. А. Ранние саки Приаралья по данным палеоантропологии // Anthronos. – Burno, 1967. – № 19. – С.247.; Яблонский Л. Т. Модель раннего этногенеза в скифо-сакской контактной зоне // Российская археология. – М.: 1998. – № 4. – С. 35-50.

Tadqiqotda Orolbo‘yi ilk saklari so‘nggi bronza davrida Yevroosiyo dashtlarida yashagan chorvador qabilalarning vorislari va madaniy an‘analarini davom ettiruvchilar bo‘lganligi haqida xulosaga kelingan.

Quyida Sirdaryo xududlarida ilk saklarning mil. avv. VII-VI asrlarga oid Uygarak va Janubiy Tagisken kabi mozor qurg‘onlari tekshirilib, alohida manzilgohlari va turar joylarining qoldiqlari topilmagan.⁵⁹ Aksincha, Xorazmning g‘arbiy qismida, Sariqamishbo‘yidagi Amudaryoning Dovdon o‘zani atrofida joylashgan ilk saklarning Sakarchaga mozor qo‘rg‘onlari bilan birga Quvisoy manzilgohida yarim yerto‘la va yer yuziga qurilgan kulbasimon uy-joylarning qoldiqlari o‘rganilgan⁶⁰. Shuningdek, mil. avv. VII asrning oxirlariga kelib, Sariqamishbo‘yi havzasida Ko‘zaliqir qal‘asi bunyod etilgan.⁶¹ Ko‘zaliqir madaniyatiga oid Xumbuztepa, Toshsaqa va Qoratosh kabi yodgorliklar Janubiy Xorazmda ham aniqlangan.⁶²

Tadqiqotda Orolbo‘yida yashagan ko‘chmanchi, yarim ko‘chmanchi va o‘troq turmush tarziga ega qabilalar, etnik guruhlar ajratilib, Quyida Amudaryo va Sirdaryo havzalari hamda Ustyurt sarhadlaridan qadimiy Uzboy o‘zani bo‘ylab Kaspiy dengizigacha joylashgan ko‘chmanchi qabilalar va “xorasmiylar” etnosining tarixiy va etnik geografiyasi muammolari ko‘rib chiqilgan. Ushbu mavzu bo‘yicha ilmiy adabiyotlarda turli qarashlar o‘z aksini topib, ular ayrim bahsli jihatlardan holi emas. Ko‘chmanchilarning yil davomida mavsumiy migratsiyalari, foydalanilgan yaylovlar va yashagan hududlarning o‘zgarib turishi jarayonlarini inobatga olgan holda, ularning etnik kartografiyasida hududiy joylashuvini tarixiy jihatdan muayyan belgilash murakkabligi aniqlangan.⁶³

Bronza davridan boshlab, Orolbo‘yi va Ustyurt hududlaridan o‘tgan tranzit yo‘llari orqali Markaziy Osiyo sivilizatsiyalar va dasht chorvador qabilalari o‘rtasida madaniy-iqtisodiy aloqalar keng taraqqiy topdi⁶⁴.

Janubiy viloyatlarda (Baqtriya va Marg‘iyonada) ishlab chiqarilgan sifatli sopol idishlar hamda lojuvard (la‘ldan) va feruza kabi mineral toshlardan yasalgan marjonlar dasht chorvadorlarning manzilgohlaridan aniqlangan⁶⁵. O‘z navbatida shimoliy dashtlar orqali Ural tog‘i konlaridan qazib olingan mis va qalay ma‘dani

⁵⁹ Толстов С. П. Результаты археологических исследований на древних руслах Сырдарьи // СА. – М.: 1962. – № 4. – С.127-142.; Вишневецкая О. А. Культура сакских племен низовьев Сырдарьи в VII-V вв. до н.э. // Тр. ХАЭЭ. – М.: 1973. Т.VIII. – 160 с.

⁶⁰ Вайнберг Б. И. Изучение памятников Присарыкамьшской дельты Амударьи в 70-х и 80-х годах // Скотоводы и земледельцы левобережного Хорезма (древность и средневековье). – М.: Наука.1991. – С.5-20.; Яблонский Л. Т. Саки Южного Приаралья... С.18-21.

⁶¹ Вишневецкая О. А. Раскопки городища Кюзели-гыр // АО 1977. – М.: Наука, 1978. – С.544-545.

⁶² Болелов С. Б. К вопросу о формировании ранней земледельческой культуры в низовьях Амударьи // Scripta Antiqua. – М.: 2016. Т.5. – С.13-43.; Баратов С.Р., Рахимов Ш. Археологические исследования на поселении Хумбузтепа в 2017-2019 гг. – Ташкент: Фан, 2020. – С.34-42.

⁶³ Толстов С. П. Приаральские скифы и Хорезм (К истории освоения и заселения древней дельты Сыр-дарьи) // СЭ. – М.: 1961. – №4. – С.114-146.; Вайнберг Б. И. Этногеография Турана в древности. – М.: Наука, 1999. – 359 с.; Сулейманов Р. Х. Кир Великий и номады Центральной Азии // Казахстан и Евразия сквозь века: История, археология, культурное наследие. – Алматы, 2010.; Ягодин В. Н. Массажеты Арало-Каспия // История и культура Узбекистана. – Ташкент: Tafakkur, 2011. – С.235-240.

⁶⁴ Толстов С. П. По древним дельтам Окса и Яксарта... С.85-86.; Сагдуллаев А.С. Шайдуллаев А.Ш, Тогаев Ж.Э. О древневосточных и евразийских миграциях...С.121-122.

⁶⁵ Аскарлов А. К вопросу о взаимоотношениях населения степей Евразии и Южного Турана в эпоху бронзы // Культуры азиатской части Евразии в древности и средневековье. – Самарканд. 2021. – С.61-63.

ashyosini hamda chorvadorlar ustaxonalarida ishlangan tayyor mahsulotlar – bronza qurol – yarog‘lari janubga olib kelingan⁶⁶.

Ilmiy adabiyotlarda Quyi Sirdaryodagi Shimoliy Tagisken maqbaralarining xom g‘ishtdan dastlab qurilishini, janubiy sivilizatsiyalar va Orolbo‘yi madaniyatlarining o‘zaro aloqalari natijasi sifatida, dasht hududlaridagi Baqtriya madaniy ta‘siri bilan bog‘lanib talqin qilindi⁶⁷.

Mil. avv. VII-VI asrlarga oid Orolbo‘yi, saklarning mozar qo‘rg‘onlaridan Baqtriya va Marg‘iyonada ishlab chiqarilgan sopol idishlar hamda ko‘k rangli lojuvarddan yasalgan munchoqlar topilgan.⁶⁸

Dissertatsiyada mavzuga oid o‘zaro aloqalar jarayonlarida ayirboshlash, iqtisodiy munosabatlar va madaniy ta‘sirning ahamiyati qayd etilib, shu qatorda Xorazm vohasiga Baqtriya-Marg‘iyona hunarmandlari va binokorlarining tinch yo‘li bilan kirib kelishi natijasida, vohada mil. avv. VII asr oxirlarida, ko‘p jihatdan mahalliy ildizlarga ega bo‘lmagan Ko‘zaliqir madaniyatining paydo bo‘lishi masalasi yangi asoslarda ko‘rib chiqilgan.

Janubdan aholi guruhlarining migratsiyalari oqibatida Xumbuztepa hunarmandchilik ustaxonalari va Hazorasp qal‘asining vujudga kelishi haqida so‘z yuritildi⁶⁹. Janubiy aholi va saklar – xorazmliklar jamoalari o‘rtasida bevosita o‘zaro aloqalari boshlangan. Chorvadorlar binokorlik hunarmandchilik va xo‘jalik sohalaridagi ilg‘or madaniy yangiliklarga moslasha borib, ularni o‘zlashtirishgan⁷⁰, shuningdek, moddiy madaniyatda o‘zgarishlar bilan birga Xorazmda zardushtiylik dafn marosimlari va yangi din ta‘limoti tarqala boshladi⁷¹. O‘z navbatida, mil. avv. V-IV asrlarda Sharqiy Orolbo‘yida saklarning qurilish, mudofaa tizimi va iqtisodiy sohalarida yangiliklarning o‘z aksini topishida, Ko‘zaliqir madaniyatining ta‘siri ham katta bo‘lgan⁷². Mil. avv. III asrning ikkinchi yarmida Quyi Sirdaryodan Janubiy Qozog‘iston va Toshkent vohasiga ko‘chib kelgan daxlar, egallab olingan yerlarda ilgari noma‘lum bo‘lgan harbiy istehkomlar va ilk shaharlarni bunyod etishgan⁷³. Bu

⁶⁶ Аванесова Н. А. Проявление степных традиций в Сапаллинской культуре // Цивилизации и культуры Центральной Азии в единстве и многообразии. – Самарканд-Ташкент, 2010. – С.107-133.

⁶⁷ Грязнов М. П. Тагискен-усыпальница вождей //Средняя Азия в эпоху камня и бронзы. –М. – Л.: Наука, 1966. – С.238.; Итина М. А. Взаимодействие земледельческих цивилизаций Средней Азии с их «варварской» периферией в эпоху бронзы // Древние цивилизации Востока. – Ташкент: Фан, 1986. – С.134.

⁶⁸ Вишнева О. А. Культура сакских племён низовьев Сырдарьи...С.78-79, 83.; Яблонский Л. Т. Саки Южного Приаралья...С.30.

⁶⁹ Ягодин В.Н. Древнейшая государственность и проблема «Большого Хорезма» 2 цикл // Вестник ККО АНРУз. – Нукус, 2007. – № 2. – С.70-71.; Мамбетуллаев М. Социально-экономические и политические факторы возникновения и развития городов Хорезма эпохи античности...С.128.; Баратов С.Р. Новые данные по археологии Южного Хорезма // Археология Узбекистана. – Самарканд, 2013. – № 1.

⁷⁰ Болелов С.Б. Ремесло Древнего Хорезма по археологическим данным. Этапы становления // Российская археология. – М.: 2013. – № 2. – С.77-86.; Курбанова Д.Ш. Ўрта Осиё давлатчилигининг ilk босқичларида Хоразм ва Марғиёна тарихий-маданий алоқалари (мил. avv. VII-V асрлар) // ЎзМУ хабарлари. – Тошкент, 2014. – №1/2. – Б.7-10.; Матякубов Х. Х. Бактрия и Хорезм в эпоху раннего железа (К проблеме взаимодействий) //Амударьинская цивилизации в системе всемирной культуры. – Термез: 2014. – С.18-20.

⁷¹ Сагдуллаев А. С. Некоторые вопросы изучения взаимодействия степных культур и древних цивилизаций // Культуры азиатской части Евразии в древности и средневековье. – Самарканд: 2021. – С.135-136.

⁷² Толстов С.П.По древним дельтам Окса и Яксарта... С.204.; Левина Л. М. К истории исследований Хорезмской археолого-этнографической экспедиции в Восточном Приаралье // Приаралье в древности и средневековье. – М.: ИВЛ., 1998. – С.45.; Юсупов А. Ш. Оролбўйи ilk сак қабилалари тарихи... Б.18-19.; Сатимов Б. Оролбўйида қадимги ҳарбий иш ва мудофаа тизими тарихи. ... Б.127.

⁷³ Сулейманов Р. Х. Следы дахо-сарматского культурного наследия в Древнем Туране и Древней Руси // Археология, этнография и антропология Евразии. Том 49. – № 3. 2021. – С.60-74.

holat turli markazlardan ilg'or madaniy, texnologik va iqtisodiy yutuqlarning qo'shni hududlarga yoyilishining namunasidir.

Ijtimoiy tuzum va qabilalar harbiy birlashmalari paydo bo'lishi masalasida, Shimoliy Tegisken madaniyatining arxeologik ma'lumotlariga ko'ra, shunday uyushmalar mil.avv IX-VIII asrlarda dastlab Sharqiy Orolbo'yida vujudga kelgan. Mazkur jarayonning sabablarini chorvachilik xo'jaligi tashkiliy tuzilishining o'zgarishi, jamoalar ichida chorva bilan ta'minlash darajasining o'sib borishi, qabilalar o'rtasida yaylovlar uchun raqobatchilik va o'zaro kurashlar kabi holatlar belgilab bergan. Xususan o'sha davrga oid "Avesto" qismlarida hujum va himoyalalanish uchun ishlatilgan qurol-yarog'lar, suvoriy jangchilar, harbiy yo'l boshchilar hamda bosqinlar va kuch ishlatish harakatlar tilga olinadi.⁷⁴

Mil. avv. VII asrda harbiy ish va taktika ancha takomillashib, Sharqiy Orolbo'yi saklar va saklar – xorazmliklar jamoalarida harbiy birlashmalarni yanada rivojlanadi va ular siyosiy ahamiyat kasb eta boshlaydi. Bu borada uzoq masofadagi joylashgan hududlarga yurishlarni tashkil etish zarurati katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Orolbo'yi saklarning boshqaruvi, katta patriarxal oila va urug' boshlig'i, qabila yo'l boshchisi tizimiga asoslanib yuritilgan. Ushbu tizim ko'p jihatdan urug'chilik tuzumining ijtimoiy institutlari va boshqaruv an'analari o'zida aks ettirgan⁷⁵. Lekin harbiylashgan sharoitda cho'pon jangchilar va harbiy sardorlarning ijtimoiy mavqei oshib borgan. Mavjud qarashlarga ko'ra, Xorazm sivilizatsiyasining ilk bosqichi haqida masalani ilgari surishga uning dastlabki namunaviy yodgorligi Ko'zaliqir qal'asi imkon beradi⁷⁶, Ko'zaliqir Xorazmda ilk davlatchilik markazi bo'lib, bu davlatning chegaralari Sariqamishbo'yi hududlari bilan cheklanganligi, davlat boshqaruvi yo'l boshchi- "podshoh" hokimiyatiga, qabilaviy zodagonlar va harbiy qo'shin kuchiga asoslanganligi to'g'risida masala ilgari surilgan.⁷⁷

Tadqiqotda mil. avv. VII asr oxirlarida Xorazmda davlat vujudga kelishining harbiy, iqtisodiy va ijtimoiy belgilari ajratilgan.

Mazkur davrda shakllana boshlagan dastlabki davlatchilik tizimidagi boshqaruv ijtimoiy-iqtisodiy va harbiy vazifalari bilan ko'proq bog'liq bo'lgan. Ijtimoiy-iqtisodiy va tashqi aloqalarning o'zgarib borishi natijasida yangi boshqaruv vazifalari paydo bo'lgan. Shu qatorda Xorazm aholisi o'z mamlakatining turli qismlarida (Sariqamishbo'yi havzasi, Hazorasp va Qo'shqal'a vohalarida) joylashganligi, tufayli hududiy – ma'muriy boshqaruvning zaruriyati vujudga kelgan. Bu holat, Ahamoniylar davridan avval Xorazmda davlat qurilishining mahalliy an'analari ma'lum bo'lmaganligi to'g'risida farazni inkor etadi.⁷⁸

Tadqiqotning uchinchi bobi yuzasidan xulosalarida Orolbo'yi saklarning paydo bo'lishi omillari va o'ziga xos xususiyatlari, Markaziy Osiyo sivilizatsiyalari bilan

⁷⁴ Авесто. Яшт китоби // М.Исҳоқов таржимаси. – Тошкент: "Шарк", 2000. – Б.67,129-130.

⁷⁵ Пьянков И. В. Общественный строй ранних кочевников по данным античных авторов // Ранние кочевники Средней Азии и Казахстана. – Л., 1975. – С.85-92.; Матякубов Х. Х. Хоразм воҳасида қадимги бошқарув тизими ва ижтимоий муносабатлар муаммолари (бронза ва илк темир даври) // Ўзбекистон давлат бошқаруви ва маҳаллий ўз-ўзини бошқарув тарихи. – Тошкент, 2014. – Б.188-196.

⁷⁶ Вишневецкая О. А., Рапопорт Ю. А. Городище Кюзели-гыр...С.150-151.

⁷⁷ Ягодин В. Н. Низовья Амударьи в эпоху распада первобытно-общинного строя и возникновение первичных государственных образований // Хорезм в истории государственности Узбекистана. – Ташкент, 2013. – С.28-29.

⁷⁸ Вайнберг Б.И. Заключение // Калалы-гыр 2. Культурный центр в Древнем Хорезме IV-II вв. до н.э. – М.: ИВЛ, 2004. – С.237.

o‘zaro aloqalari va migratsiyalar ta‘sirida etnomadaniy jarayonlarning o‘zgarishi, chorvadorlar jamiyatida harbiy yo‘lboshchilar hokimiyatiga asoslangan dastlabki qabilaviy uyushmalar va sak qabilalari siyosiy-harbiy birlashmalarning rivojlanishi hamda Xorazmning g‘arbiy va janubiy qismlarida hududiy – ma‘muriy boshqaruv asosida davlatchilik tizimining shakllanishi uqtirilgan.

Tadqiqotning “**Antik davri Xorazm tarixi**” deb nomlangan to‘rtinchi bobining to‘rtta bandida quyidagi masalalar: Xorazmda markazlashgan davlatning vujudga kelishi va uning hududiy chegaralari, hududiy-ma‘muriy tizim va boshqaruv, shaharlar muammosi va ijtimoiy-iqtisodiy hayot, qadimgi Xorazm davlatchiligi taraqqiyotida din, san‘at va yozuvning ahamiyati ko‘rib chiqilgan.

Markaziy Osiyo hududlari, mil. avv. 545-540-yillaridan boshlab, qadimgi forslar tomonidan bosib olinishi oqibatida, mintaqaning qadimiy mamlakatlarida, shu jumladan, Xorazmda ham ma‘lum vaqt davomida mahalliy davlatchilik an‘analarining rivojlanishi to‘xtab qolgan.

Xorazmning Ahamoniylar saltanati tarkibidan chiqib, mustaqil davlat sifatida rivojlanishi masalasi bahs-munozaralarga aylangan. Ushbu voqeaning yuzaga kelishi mil. avv. V asrning oxirlari – IV asr boshlari bilan bog‘lanadi.⁷⁹ Shu bilan birga, mil. avv. IV asrda Xorazm davlati boshqaruv institutlarini Ahamoniylardan meros qilib olganligi qayd etilib, buning sababi, Xorazmda davlat qurilishining mahalliy an‘analari shakllanmaganligi bilan izohlangan.⁸⁰ Bu g‘oyaga rozi bo‘lib, ishonish qiyin. Ahamoniylar davrdan avval paydo bo‘lgan Ko‘zaliqir madaniyatiga tegishli ma‘lumotlar bunday qarashlarni rad etadi. O‘z paytida V.V.Bartold qadimgi Xorazmning hukmronligi Sharqiy Yevropaning Volgabo‘yiga yetgan deb hisoblagan.⁸¹ Ushbu fikrni rivojlantirgan S.P.Tolstovning nuqtai nazari bo‘yicha, mil. avv. IV asrda qadimgi Xorazmshohlar o‘z hokimiyatini Volgabo‘yidagi sarmatlar mamlakatlarigacha o‘tkazgan.⁸² O‘sha davrda sarmatlar Janubiy Ural va Quyi Don daryosi o‘rtasidagi yerlarda yashagan va katta qabilalar uyushmasiga birlashgan.⁸³ Shu sababdan, ular Xorazmshohlar hokimiyatining siyosiy ta‘sirida bo‘lganligini tasavvur qilish mushkul. Shuningdek, Ustyurtning janubi-sharqiy qismida mil. avv. V-IV asrning boshlariga oid sarmatlarning mozor qo‘rg‘onlari kashf etilib o‘rganilgan.⁸⁴

Mil. avv. IV asrda Xorazm davlatining hududi geografik va siyosiy jihatdan shakllanib, mamlakatning hududiy chegaralari shimoli-g‘arbda Ustyurt, janubda O‘ngizorti Qoraqumi va O‘rta Amudaryo havzasi, sharqda Qizilqum hamda g‘arbda Sariqamish ko‘li va Yuqori Uzboy havzasi bilan cheklandi.

⁷⁹ Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – М.: ИВЛ, 1962. – С. 115-116.; Пьянков И.В. «История Персии» Ктесия и среднеазиатские сатрапии Ахеменидов в конце V в. до.н.э. // ВДИ. – М.:1965. – № 2. – С. 43.; Балаханцев А.С. Отделение Хорезма от государства Ахеменидов // Хорезм в истории государственности Узбекистана. – Ташкент, 2013. – С.58, 60.

⁸⁰ Вайнберг Б.И. Заключение // Калалы-гыр 2. Культурный центр в Древнем Хорезме IV-II вв. до.н.э. – М.: ИВЛ, 2004. – С. 237.

⁸¹ Бартольд В.В. Сведения об Аральском море и низовьях Амударьи с древнейших времен до XVII века // Сочинения. – М. Наука, 1965. Т. III. – С.28.

⁸² Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб... Б.117.

⁸³ Смирнов К.Ф. Кочевники Северного Прикаспия и Южного Приуралья скифского времени // Этнография и археология Средней Азии. – М.: Наука, 1979. – С.76.

⁸⁴ Ягодин В.Н. Курганный могильник Дэвкескен 4 // Археология Приаралья. – Ташкент: Фан, 1990. Вып. IV. – С.28-80.

Xorazm vohasida, mil. avv. IV-III asrlardan boshlab, aholi sun'iy sug'orish inshootlari bo'ylab, alohida dehqonchilik voha-tumanlarda yashagan.⁸⁵ Xorazmda ilgari davrga nisbatan, aholining hududiy tashkil etilishida ma'muriy birliklarga bo'linishi jadallashgan. Bu jarayon bevosita markazlashgan davlatning rivojlanishidan dalolat beradi. Dehqonchilik vohalaridagi uy-joylar harbiy istehkom-qal'alar atrofida birlashgan⁸⁶. Aholining joylashishi tizimida, hududiy taqsimlanishi tamoyilning namoyon bo'lishi, hududiy-ma'muriy birliklar va mahalliy boshqaruvning mavjudligidan guvohlik beradi.

Antik davri Xorazmda katta patriarxal oilalar va hududiy qo'shni jamoalari qishloq xo'jalik hududiy birliklarning asosini tashkil etgan. Katta oilani xonadon egasi-patriarh (ota) boshqargan.⁸⁷ Oila jamoasi a'zolarining barqarorligini xususiy mulk, ishlab chiqarish vositalari va birgalikda xo'jalik ishlarini olib borish tamoyillari birlashtirgan. Tadqiqotda arxeologik ma'lumotlar va yozma manbalarning qiyosiy tahlili asosida dehqonchilik vohalarida mahalliy boshqaruv quyidagi tizimga asoslanganligi aniqlangan: katta oila boshlig'i – hududiy qo'shni-chilik jamoasi boshlig'i – oqsoqollar yig'ini – voha-tuman boshqaruvchisi (mahalliy hokim).

Mil. avv. IV asrning so'nggi choragiga kelib (mil. avv. 328-yilda) Xorazmda oliy hukmdor Farasman, yunon manbalarida “basilevs”, ya'ni “podshoh” deb atalgan.⁸⁸ Tangalardagi yozuvlaridan (mil. avv. I – milodiy III asrlar) Xorazm hukmdorlari Artav, Artamux va Vazamar arameycha MLK’-“shoh” maqomiga ega bo'lishgan.⁸⁹

Mil. avv. IV-II asrlarda Xorazmning sharqiy va g'arbiy qismlarida ibodatxonalarning qurilishi markazlashgan davlatning siyosati bilan bog'lanib, bunda diniy urf-odatlar va marosimlarni ado etish qatorida, jamoalararo munosabatlarini muvofiqlashtirish, nazorat va boshqaruv vazifalari ham amalga oshirilgan. Bu davrga oid Qo'yqirilganqal'a, Elxaras, Qal'aliqir 2 kabi ibodatxonalar davlat miqyosida bosh ibodat markazlari bo'lgan.⁹⁰

Antik davrda, mil. avv. IV asrdan, milodiy IV asrning boshlariga qadar Xorazmda davlat boshqaruvi mahalliy va markaziy boshqaruvdan iborat bo'lib, o'ziga xos tarmoqlardan tashkil topgan. Markaziy boshqaruv davlatning ichki va tashqi hayotiga bog'liq masalalarni hal qiladigan dargoh-saroyda jamlangan. Bunday saroylar Tuproqqal'ada (milodiy II-III asrlar) va Oqchaxonqal'ada o'rganilgan (mil. avv. II – milodiy I asrlar). Oqchaxonqal'aning saroy-ibodatxona vazifasini o'tagan me'moriy majmui aylanma yo'laklarining devorlaridagi rangtasvirlar ichida (mil. avv. II – milodiy I asrlar) shartli “Xorazm hukmdorlarning suratlari” deb atalgan suratlar ostidagi Xorazm yozuvida aniqlangan “shoh” va “o'g'il” so'zlari ushbu tasvirlarning sulolaviy mohiyatiga ishora qiladi.⁹¹

⁸⁵ Фуломов Я.Ф. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Тошкент: 1959. – Б.78-118.; Андрианов Б.В. Древние оросительные системы Приаралья. – М.: Наука 1969. – С.98.

⁸⁶ Неразик Е.Е. Сельское жилище в Хорезме (I-XIV вв) // Тр.ХАЭЭ. – М.: 1976. Т.IX. – С.13-57.

⁸⁷ Неразик Е.Е. Сельское жилище в Хорезме... С.206-211.

⁸⁸ Арриан. Поход Александра //Перевод М.Е.Сергеенко. – М. – Л, 1962 – Кн.IV. 15, 4.5.

⁸⁹ Вайнберг Б.И. Монеты Древнего Хорезма. – М.: 1978. – С.83.

⁹⁰ Вайнберг Б.И. Заключение // Калалы-гыр 2. Культовый центр ... С.237-238.

⁹¹ Yagodin V. Miloddan avvalgi IV-III – milodiy VI asrlarda Qozoqliyotganqal'a (Oqchaxonqal'a) // O'zbekiston arxeologik xazinalari. Makedoniyalik Iskandardan Kushonlar saltanatigacha. – Berlin, 2023. – B.143-147.; Kidd F.

Markaziy boshqaruv bilan bog‘liq ayrim masalalar, Xorazm saroyida xo‘jalik ishlarining boshqaruvchisi, xazinaboni, soliqlarni yig‘ib qabul qiluvchi va hisob yurituvchi amaldorlar haqidagi ma‘lumotlar, Tuproqqal‘adan topilgan, yog‘och taxtachalarga va charm yuzasiga yozilgan xujjatlar asosida o‘rganilgan⁹². Tadqiqotda saroy mansab va unvonlari antik davri Baqtriya va Parfiya hujjatlarida⁹³ xo‘jalik ishlariga mansub mansabdorlar ro‘yhati bilan qiyoslangan.

Markaziy boshqaruv tizimida davlat havfsizligini ta‘minlash, mudofaa inshootlarini qurish va savdo yo‘llari bo‘ylab qal‘alarni bunyod etish muhim vazifalaridan biri hisoblangan.⁹⁴

Mil. avv. IV-III asr birinchi yarmida Xorazm Markaziy Osiyoda ilk podshohlik bo‘lgan, bundan keyin mil. avv. III asr o‘rtalarida shoh hokimiyatiga asoslangan Yunon-Baqtriya va Parfiya davlatlari paydo bo‘lgan hamda milodiy I asrda Kushon podshohligi vujudga kelgan.

Xorazmning qadimgi davri (mil. avv. IV – milodiy III asrlar) shaharlari tarixiga oid alohida maxsus tadqiqot yaratilmagan. Shaharlarning ishlab chiqarish, iqtisodiy, madaniy, ma‘muriy va harbiy-siyosiy vazifalariga oid qo‘lga kiritilgan ma‘lumotlar davriy jihatdan baravar emas.⁹⁵ Antik davri Sug‘d va Baqtriya shaharlarida singari Xorazm shaharlari aksariyatida hunarmandlar, savdogarlar, aholining boshqa ijtimoiy qatlamlari yashagan dahalar aniqlanmagan. Ular ichida shohlarning sulolaviy – diniy markazlari Tuproqqal‘a ajralib turadi. Biroq shaharda yashagan hunarmandlar, binokorlar, ziroatkorlar va boshqa ishlarni bajargan kishilar faqat saroy xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatish bilan band bo‘lganlar.⁹⁶

Antik davri Baqtriya yoki So‘g‘d misolida namoyon bo‘lgan urbanizatsiya jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri Xorazmga ko‘chirish noto‘g‘ri yondashuv bo‘lardi. Chunki janubda mazkur davrdagi qadimiy urbanizatsiyada mahalliy va ellinizm an‘analari qorishib ketgan edi.

Xorazm vohasidagi hunarmandchilik ishlab chiqarish ko‘proq dehqonchilik vohalarida tashkil etilganligi aniqlangan. Xorazm chegaralarida barpo etilgan shahar tipidagi aholi manzilgohlari (Katta Oybo‘yirqala, Devkesgan) va alohida qal‘alar, harbiy va iqtisodiy jihatdan davlat siyosatida katta ahamiyatga ega bo‘lgan⁹⁷. Shuningdek, tashqi savdo, karvon yo‘llardagi shaharlar (Hazorasp) hamda

Oqchaxonqal‘a (Xorazm)ning tasviriy san‘at namunalari // O‘zbekiston arxeologik hazinalari: Makedoniyalik Iskandardan Kushonlar saltanatigacha. – Berlin, 2023. – B.153.

⁹² Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – М.:ИВЛ, 1962. – С.215-222.; Лившиц В.А. Документы: Топрак-кала. Дворец II Тр.ХАЭЭ. – М.: 1984. Т.ХIV. – С.251-286.

⁹³ Ртвеладзе Э.В. Царская власть и административно-государственный аппарат // История государственности Узбекистана. Т.1. – Ташкент: “Узбекистан”, 2009. – С.278-279.

⁹⁴ Мамбетуллаев М.М. Вооружение и военное дело Хорезма // Археология Приаралья. – Нукус, 2003. Вып. VI. – С.21-31.; Ходжаниязов Ф. Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари. – Тошкент: O‘zbekiston, 2007. –Б.58-76.

⁹⁵ Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта... С.204-226.; Неразик Е.Е. К проблеме развития городов Хорезма // Культура и искусство древнего Хорезма. – М.: Наука, 1981. – С.219-227.; Ягодин В.Н. Древний Хорезм и центральноазиатский урбанизационный процесс // Генезис и пути развития процессов урбанизации. – Самарканд: 1995.

⁹⁶ Топрак-кала. Дворец // Тр.ХАЭЭ. – М.: 1984. Т. ХIV. – С.287-296.; Неразик Е.Е. Древние города Хорезма и пути их развития (IV в.до.н.э. – IV в.н.э). // Центральная Азия. Источники, История, Культура. – М.: 2005. – С.549.

⁹⁷ Мамбетуллаев М. Городище Айбуйир-кала // Археология Приаралья. – Ташкент: Фан, 1990. – С.102-105.

dehqonchilik vohalar ichida joylashgan qal'alar (Kat, Bozorqal'a) davlat hokimiyatining tayanch markazlariga aylangan.⁹⁸

Tadqiqotda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, qishloq xo'jaligi, xususiy mulk, katta oilalar jamoalari, saroy va ibodatxonalar xo'jaliklarining rivojlanishi, soliq tizimi va to'lovlari, hunarmandchilik va savdo aloqalar masalalari ko'rib chiqilgan. Arxeologik materiallar va yozuv xujjatlarda mavjud ma'lumotlar⁹⁹, Xorazm, Yunon-Baktriya, Parfiya va Kushon podshohlklarining ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishini qiyoslashga asos bo'lib, har bir davlat siyosatida hududiy-ma'muriy birliklarni tashkil etish, mamlakat aholisini soliq'larga tortish maqsadi bilan bog'langan. Soliqlar asosan qishloq xo'jalik mahsulot to'lovlari, ayrim holatlarda tanga pullar va hunarmandchilik buyumlar, shaklida yig'ib olinganligi bilan birga, ibodatxonalarning xazinalari oltin, kumush tangalar va alohida zargarlik buyumlar hisobiga ham to'ldirilganligi aniqlangan.

Ilk sivilizatsiyalar vujudga kelgan mintaqalarda, tasviriy san'at va yozuvning rivojlanishi davlatchilik taraqqiyoti darajasini belgilab bergan. Shuningdek, din muhim ijtimoiy omil va siyosiy institut sifatida davlatning faoliyatida katta ahamiyat kasb etgan.

Qadimgi Xorazm tasviriy san'at namunalari – sopol haykalchalar, katta loy-ganch haykallar, devoriy rang tasvirlar, haykali ossuariylar, sopol idishlar sirtidagi bo'rtma tasvirlar o'rganilishi asosida ma'naviy madaniyat, diniy e'tiqodlar masalalari yoritilgan.¹⁰⁰ Shu qatorda qadimiy Xorazm yozuvi yodgorliklarning davlatchilik tuzimini qayta tiklashda muhim ilmiy ahamiyatga ega.¹⁰¹

Tadqiqotda Xorazm yozuvining davlat jamiyatining tuzilishi, katta patriarxal oilaning tarkibi va ijtimoiy aloqalari, shaxsiy ismlar, turli tushunchalar va madaniyat darajasini o'rganishdagi o'rni ochib berilgan. Shuningdek, san'at davlatchilik rivojlanishining yuqori darajasini o'zida aks ettirib, diniy, mifologik va dunyoviy mazmuniga ega bo'lgan.

Xorazm davlatida din nihoyatda katta o'rin egallaganidan, mamlakatning turli joylarida suv, hosildorlik va olovga sig'inish ibodatxonalarning mavjud bo'lganligidan guvohlik beradi. Ibodatxonalar qoshida alohida kohinlar faoliyat yuritib, ular umumdavlat diniy marosimlarini ado etishda, yil fasllariga bag'ishlangan bayramlarni o'tkazishda katta ahamiyat kasb etgan.

Tadqiqotning to'rtinchi bobi xulosasida Xorazmda mil. avv. IV asrdan boshlab, xududiy chegaralar, ma'muriy birliklar, mahalliy va markaziy boshqaruvga ega davlatning rivojlanishi, uning ijtimoiy-iqtisodiy institutlari tizimining o'ziga xos jihatlari hamda qadimgi Xorazm davlatchiligi, sivilizatsiyasi taraqqiyotida din, san'at va yozuvning ahamiyati qayd etilgan.

⁹⁸ Неразик Е.Е. Древние города Хорезма...С.553.

⁹⁹ Неразик Е.Е. Материалы по землепользованию и землевладению в Хорезме первых веков н.э. // Этнография и археология Средней Азии. – М.: Наука, 1979. – С.43-45.; Лившиц В.А. Надписи и документы // Калалы-гыр 2. Культурный центр в древнем Хорезме. – М.:ИВЛ, 2004. – С.189.; Болелов С.Б., Ртвеладзе Э.В. Древнехорезмийское государство. ...С.79-80.

¹⁰⁰ Воробьева М.Г. Керамика Хорезма античного периода // Тр.ХАЭЭ. – М.: 1959. Т.IV. – С.63-221.; Рапопорт Ю.А. Из истории религии древнего Хорезма (оссуарии) // Тр.ХАЭЭ. – М.: 1971. Т.VI. – 126 с.; Курбанова Д.Ш. Хоразм воҳасининг қадимги ва илк ўрта асрлар маънавий маданияти. – Тошкент: 2015. – Б.96-106.

¹⁰¹ Лившиц В.А. Памятники хорезмийской письменности // ВДИ. – М.: 2009. – № 3. – С.108-109.; Исҳоқов М. Қадимги Хоразм ёзуви ва ёзув маданияти // Хоразм тарихи замонавий тадқиқотларда. – Урганч: 2018. – Б.20-25.

XULOSA

Tadqiqot natijasida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

1. Xorazm vohasida urug‘doshlik tuzumining ilk bosqichi – so‘nggi paleolit davriga oid makonlar Sulton Uvays tog‘i yon bag‘irlarida va Ko‘kcha yodgorligida aniqlangan. Shu makon – joylardan toshdan ishlangan kesgich, qirg‘ich va zarba beruvchi qurollar topilgan. Ular urug‘chilik jamoalari hayotida ovchilik ustunlik qilganidan va termachilik sohasi xo‘jalikning yordamchi tarmog‘i bo‘lganidan guvohlik beradi.

Shuningdek, Orolbo‘yida so‘nggi paleolit davriga mansub mehnat qurollari Ustyurtning g‘arbiy qismida Oqbuloq makonidan hamda janubi-sharqida Borsakelmas va Asaka-Ovdon botig‘lari atrofidagi makonlaridan topilgan. Ular orasida qadimiy chaqmoqtosh koni Yesen 2 ajralib turadi. Bu yerda chaqmoqtoshga ishlov berish va ov qurollarini yasashga moslashgan paleolit davri ustaxonasi joylashgan. Ilk urug‘doshlik tuzumida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar masalalari ilmiy ma‘lumotlarning cheklanganligi tufayli ko‘p jihatdan o‘rganilmagan.

2. Xorazm vohasida so‘nggi paleolit va keyingi mezolit davriga oid uzoq muddat davomida yashash uchun mo‘ljallangan yarim yerto‘la kulbalarga o‘xshash turarjoylarning izlari aniqlanmagan. Mavjud ma‘lumotlarga ko‘ra, topib tekshirilgan makonlar, Mang‘ishloq, Sharqiy Kaspiybo‘yi va Ichki Qizilqum sarhadlaridan qulon, sayg‘oq, jayron kabi dasht hayvonlarni ovlash maqsadida kirib kelgan urug‘chilik jamoalarining vaqtincha yashash joylari bo‘lgan. Kelgindi ovchilar o‘ljani qo‘lga kiritib, ya‘ni oziq-ovqat mahsulotlarini yetarli darajada g‘amlab qo‘yib, an‘anaviy yashaydigan o‘z hududlariga qaytib turishgan. Shu sababli boshda, Xorazm vohasida ilk urug‘doshlik jamoalarining yashashi mavsumiy xususiyatga ega bo‘lgan.

3. Quyi Amudaryo havzasi va Ustyurt hududida amalga oshirilgan yangi arxeologik tadqiqotlar natijasida, Orolbo‘yi tosh davri madaniyati tarixiga oid qo‘lga kiritilgan ma‘lumotlar, Xorazm vohasini urug‘doshlik jamoalari tomonidan o‘zlashtirish jarayonlarini davriy jihatdan aniqlash, vohadagi tabiiy-geografik muhit va ovchilar-termachilar jamoalarining o‘zaro ta‘sirini hamda madaniy landshaft shakllanishining dastlabki ko‘rinishlarini o‘rganishga imkon yaratgan.

Bu borada urug‘doshlik tuzumining so‘nggi paleolit, mezolit va neolit davrlaridagi inson turmush tarziga, uning mehnat qurollari va mehnat ob‘ektlarini tanlab olinishiga hamda xo‘jalik faoliyati va mehnat usullariga tabiiy-geografik sharoit ta‘sir etganligi kuzatiladi. Shu sababdan, urug‘chilik jamoalarining hayotida tabiiy-geografik muhitga nisbatan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga yetakchi ahamiyat berish bahsli yondashuv bo‘lib, aslida tabiiy-geografik va ijtimoiy-iqtisodiy omillarning o‘zaro bog‘liqligi va ta‘siri to‘g‘risida so‘z yuritish maqsadga muvofiqdir.

